

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI**

**“MOLIYA” KAFEDRASI**

**G‘ANIEV BOBARAHIM BOYMIRZA O‘G‘LI**

**«LIZING OPERATSIYALARINING AKTIVLARINI  
SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI»**

**5230600 -“Moliya”- ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun  
yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»**

«Moliya» kafedrası mudiri

\_\_\_\_\_ i.f.n.,dots. O.Komolov

«\_\_\_\_»\_\_\_\_\_201\_ y.

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_ Sh. Ataev

**TOSHKENT - 2017**

| <b>MUNDARIJA:</b>                                                                                                        | <b>betlar</b> |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| <b>KIRISH .....</b>                                                                                                      | <b>3</b>      |
| <b>1-BOB. LIZING OPERATSIYALARINING NAZARIY VA<br/>TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI .....</b>                                  | <b>6</b>      |
| 1.1. Lizingning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati va rivojlanish<br>bosqichlari .....                                        | 6             |
| 1.2. Lizingning turlari va tasniflanishi .....                                                                           | 14            |
| 1.3. O'zbekiston Respublikasida lizing munosabatlarining huquqiy<br>asoslari .....                                       | 20            |
| 1-bob bo'yicha xulosalar .....                                                                                           | 27            |
| <b>2-BOB. O'ZBEKISTONDA LIZING BOZORINING AMALDAGI<br/>HOLATINING TAHLILI .....</b>                                      | <b>29</b>     |
| 2.1. O'zbekistonda lizing xizmalari sektorining tahlili .....                                                            | 29            |
| 2.2. "Ipoteka bank" ATIB Farg'ona filialining lizing operatsiyalari<br>tahlili .....                                     | 38            |
| 2- bob bo'yicha xulosalar .....                                                                                          | 44            |
| <b>3-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LIZING<br/>OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH<br/>YO'NALISHLARI .....</b>      | <b>46</b>     |
| 3.1. Lizing operatsiyalarini rivojlantirishda xorijiy davlatlarning<br>ilg'or tajribalaridan foydalanish masalalari..... | 46            |
| 3.2. O'zbekistonda lizing operatsiyalarini takomillashtirishning<br>asosiy yo'nalishlari .....                           | 52            |
| 3- bob bo'yicha xulosalar .....                                                                                          | 58            |
| <b>XULOSA .....</b>                                                                                                      | <b>60</b>     |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>                                                                          | <b>64</b>     |

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.** Mustaqillik sharofati tufayli yurtimizda lizing, sug'urta kabi xizmat turlari yo'lga qo'yilib, ular tobora takomillashtirilmoqda. Bunda, ayniqsa, sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yaratilgani muhim ahamiyat kasb etayapti.

Prezidentimiz Sh. Mirdziyoyev ta'kidlaganlaridek "«Iqtisodiy mustaqillikka erishmasdan turib, siyosiy mustaqillikni ta'minlab bo'lmaydi» degan qoidaga amal qilgan holda, biz mamlakatimizning iqtisodiy qudratini oshirish, jahon maydonida uning raqobatdoshligini ta'minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayonlarini izchil davom ettiramiz. Bizning oldimizda 2030 yilgacha mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmini 2 barobardan ziyod oshirish, bunda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 33,5 foizdan 40 foizga etkazish vazifasi turibdi"<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun lizing opertasiyalarini davr bilan hamnafas va hamqadam bo'lgan holda rivojlantirish zarur bo'ladi. Lizing kompaniyalari tomonidan korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun har tomonlama qulay va manfaatli bo'lgan yangi ikkilamchi, operativ lizing xizmatlari taklif etilayotgani esa sohaning istiqbolli ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Demak, lizing rivoji bundan keyin ham taraqqiyotimizga xizmat qilaveradi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida O'zbekistonda mavjud qonunchilikdagi imtiyozlarga tayanib, respublikada lizing mexanizmini qo'llash korxona va tashkilotlarni faoliyatini jadallashtirishga, ular uzoq muddatli aktivlarini hajmini oshirish imkonini beradi. Ikkinchidan, lizing amaliyotini tijorat banklari hamda lizing kompaniyalari tomonidan keng qo'llanilishi bozor iqtisodiyotining raqobat muhitida afzalliklar yaratadi. Shu bilan birgalikda, moliyaviy resurslar cheklanganligi sharoitda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning

---

<sup>1</sup> Sh. Mirdziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xaltsimiz bilan birga kuramiz. «O'zbekiston» NMIU, 2017 y., 126-bet

mashina va asbob-uskunolari, ya'ni ishlab chiqarish vositalarini mablag' tejash asosida, qisqa muddat ichida yangilashga yordam beradi. Ayniqsa, moliyaviy resurslarga talabi yuqori xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga lizingdan foydalanish qulay imkoniyatlardan hisoblanadi.

Lizing munosabatlarining kengayishi va rivojlanishi natijasida korxonalarni yangi asbob-uskunalar bilan ta'minlash asosida avvalo, bozorning to'yinishi, mamlakat yalpi ichki maxsulotining o'sishi, lizing asosida tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi sub'yektda maxsulot ishlab chiqarishni kengaytirish asosida soliq tushumlarini iqtisodiyotning barcha sohalarida ilmiy texnika taraqqiyotini mablag' bilan ta'minlash uchun ko'maklashadi. Ushbu holatlar tanlangan mavzuning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** Mamlakatimizda lizing operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti.** O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan lizing kompaniyalari va tijorat banklarining lizing operatsiyalari ishning ob'yekti bo'lib hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi lizing operatsiyalarining aktivlarni shakllantirishdagi ahamiyatini nazariy-huquqiy tomondan tadqiq etish va lizing bozorini joriy holatini tahlil qilib, mamlakatimizda lizing munosabatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari esa quyidagilardan iborat:

- lizingning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati va rivojlanish bosqichlarini yoritish;
- lizingning turlari va tasniflanishini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasida lizing munosabatlarining huquqiy asoslarini tadqiq etish;
- O'zbekistonda lizing xizmalari sektorining tahlil qilish;

- lizing operatsiyalarini rivojlantirishda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari bilan tanishish;
- mamlakatimizda lizing operatsiyalarini takomillashtirishning istiqbollari qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.** O'zbekiston Respublikasida lizing operatsiyalarini takomillashtirish bo'yicha berilgan taklif va amaliy tavsiyalar mamlakatimizda lizing munosabatlarini rivojlantirishda amaliy yordam beradi. Qolaversa, ushbu bitiruv malakaviy ishidan o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimidagi "Moliya", "Investitsiyalarni moliyalashtirish", "Lizing asoslari" kabi iqtisodiy fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Bitiruv malakaviy ishida 8 ta rasm va 14 ta jadval keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida lizing operatsiyalarining nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari ko'rib chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida O'zbekistonda lizing bozorining amaldagi holati tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida esa O'zbekiston Respublikasida lizing operatsiyalari samaradorligini oshirish yo'nalishlari ko'rib o'tilgan.

Xulosa qismida mavzu bo'yicha tegishli xulosalar shakllantirilgan va takliflar berilgan.

## **1-BOB. LIZING OPERATSIYALARINING NAZARIY VA TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **1.1. Lizingning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati va rivojlanish bosqichlari**

Lizing – bu tadbirkorlik turi bo'lib, vaqtinchalik bo'sh bo'lgan yoki qarz qilib olingan pul mablag'larini investitsiya qilish orqali, lizing shartnomasi asosida lizing beruvchi lizing shartnomasida ko'rsatilgan mulkni, aniqlangan sotuvchidan sotib olish va lizing oluvchiga tadbirkorlik uchun aniqlangan to'lovlar asosida vaqtinchalik foydalanishga etkazib berish majburiyatlarini oladi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar uchun lizing almashtirib bo'lmaydigan moliyaviy richagdir, chunki lizing faoliyati butun dunyoda iqtisodiyotni rivojlantirishning eng qulay usullaridan biri sifatida tan olingan. Lizing xaqida gapirar ekanmiz avvalo bozor iqtisodiyoti sharoitida lizingning vujudga kelishi, lizing so'zinig ma'nosi uning tarixiga nazar salsak maqsadga muvofiq bo'lardi.

«Lizing» so'zi inglizcha bo'lib, «Lease» fe'lidan kelib chiqqan va taxminan, «mulkni ijaraga berish» yoki «mulkni ijaraga olish» ma'nosini ifodasini bildiradi va iqtisodiy lug'atga 1877 yilda kiritilgan. Lizingning mazmuni va mohiyatini ochish-Aristotel davrlariga borib taqaladi, bu taxminan eramizdan avvalgi 384-383-382 yillarni o'z ichiga olgan davrlardir. Aristotel shunday degan: «Boylik egalik qilishda emas, balki undan samarali foydalanishdadir». Hozirgi zamon tili bilan aytganda, kishining daromad olishi uchun qandaydir bir mulkka albatta egalik qilishi shart emas, balki undan foydalanish huquqiga ega bo'lishi va natijada foyda olishning o'zi kifoya qiladi.

Tarixning guvohlik berishicha, qadimda, lizing biror-bir aniq mulkni ijaraga berish bilan chegaralanmagan. Va bu davrda, nafaqat qishloq xo'jaligi texnologiyasi va hunarmandchilik asbob-uskunolari, balki harbiy aslahalar, qurol-yaroqlar ham ijaraga berilgan. Tarixiy ma'lumotlarga asosan, lizing

bitimi amaliyotda qo'llanilganligini tasdiqlovchi birinchi xujjat 1066 yilga borib taqaladi. Bunda, qirol Vilgelm normandlardan, kemalarni Britaniya orollarini ishg'ol qilish uchun ijaraga olganligi qayd etilgan. Ikki xaftalik vaqt ichida ikki yirik flot (biri norveglar, ikkinchisi normandlar) Angliya qirolligini ishg'ol qilish uchun etib bordilar. O'sha vaqtlarda har ikkala flot juda xaybatli edi. Biroq, na norveglarning qirol va na normandlarning gertsogi bunday tadbirni moliyalashtirishga iqtisodiy imkoniyati bo'lmagan. Shuning uchun, zarur bo'lgan kemalarni va qurol-aslahalarni olish uchun ijaraning maxsus shakli – ya'ni, «lizing» dan foydalanilgan.

Venetsiyada ham XI asrda lizing operatsiyalariga o'xshash bitimlar mavjud bo'lgan: venetsiyaliklar kema egalarga va sotuvchilarga o'sha vaqtlar juda qimmat hisoblangan kema yakorlarini ijaraga berganlar. Suzish tugagandan so'ng, "po'lat qimmatliklar" egalarga qaytarilgan va yana ijaraga berilgan. XIX asrning boshlarida Buyuk Britaniyada sanoatning rivojlanishi, asbob-uskunalarining turli xillari ko'payishi oqibatida, lizingga topshiriladigan tovarlar sonining o'sishi yuz berdi. Bunda temir yo'l transporti va ko'mir sanoatining rivojlanishi asosiy o'rinni egalladi. Ko'mir konlari egalari o'z ishlarini boshlanishida ko'mirni tashish uchun vagonlar sotib oldilar, biroq, tezlikda buning foydasizligini, va hatto, bunday moliyalashtirishning iloji yo'qligi ma'lum bo'ldi. Ko'mirni qazib chiqarish hajmining o'sishi, yangi shaxtalarning ochila boshlanishi juda ko'plab vagonlarni talab etardi. Kichik korxonalar bunday qulay sharoitdan foydalanib, kapitallarini shu kabi xizmat ko'satadigan tarmoqlarga qo'yishdi. Ular ko'mir tashish uchun vagonlarni sotib olib, uni temir yo'l kompaniyalariga lizingga berardilar. Shunday qilib, yagona maqsadi va faoliyati faqatgina temir yo'l vagonlarni lizingga beradigan kompaniyalar yuzaga keldi. Bitimni tuzish vaqtida lizingdan foydalanuvchiga, lizingning muddati tugaganidan so'ng, unga mulkni sotib olish huquqini berishni ko'zda tutardi. Buning asosiy sabablaridan biri bo'lib, foydalanuvchilarning vagonlarni ishlatishda extiyotkorlik va to'g'ri foydalanishga undash edi, chunki, ular keyinchalik shu vagonlarni sotib

olishlari mumkin edi. Bunday bitimlar ijara sotuv bitimi nomini oldi. Ingliz tilida «hire-purchase» iborasi tarjima qilinganda «ijara-xarid» ma'nosini anglatadi. Biroq, birinchi termin kengrok tarqalgandir. Lizing va ijara sotuvi rivojlanishidagi keyingi bisqichlarda lizing bitimlaridan va ijara sotuvlaridan cheklovlarni olib tashlash zaruriyati tug'ildi. Shu bilan birga, nafaqat Evropada, balki AQShda ham turli xildagi texnika va asbob-uskunalar ijarasini moliyalashtirishga talab kuchli edi. Xususiy mulkchilikka tegishli birinchi qayd qilingan ijara bitimi XVIII asr boshida Amerikaning Shimoliy birlashgan shtatlarida qayd qilingan. Bunda ijaraga otlar hamda aravalar berilgan. Buyuk Britaniyada lizing operatsiyalarining faollashuvi, ushbu davlatda temir yo'l transportlari rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bunda, investorlar yo'naltirilgan mablag'lar daromadlilikini temir yo'l va vagonlarini sotib olishni moliyalashtirish orqali ta'minlaganlar. Asbob-uskunalarni boshqarishni trastlar amalga oshirganlar, ularning orqasida esa, banklar yoki ularni tashkil etgan yirik qo'shma trastlar turgan. Trastlarning sertifikatlari investorlarga sotilgan va investitsiyaning xajmiga qarab ma'lum miqdorda fond olish huquqi berilgan.

Hozirgi zamon lizing munosabatlariga o'xshab trast boshqaruvchisi, asbob-uskuna tayyorlovchiga to'lov to'lab, so'ngra, shu asbob-uskunadan bitim asosida foydalanuvchidan ijara to'lovini yig'ib olar edi. Ijara to'lovi o'zining hajmi bo'yicha barcha majburiyatlarni qoplagan.

XX asr boshlarida jo'natiladigan tovarlar hajmining ortishi bilan, ko'pgina temir yo'l lizing kompaniyalari vagonlardan foydalanishda monopoliya qilish yoki uzoq muddatli boshqarishdan ko'ra, asbob-uskunalarni ishonchli foydalanishga berilishni afzal bildilar. Bu mazkur vositalardan, faqatgina qisqa muddatda foydalanish talab qilinishiga olib keldi. Trastlar qisqa muddatli bitimlar tuzishga harakat qilishardilar. Bitimning muddati tugaganidan so'ng, vagonlar ijaraga beruvchiga qaytarilar, o'z navbatida, u mulkiga egalikni o'z qo'lida saqlab qolar edi. Bunday ijara to'lovlari, xaqiqiy yoki operatsion lizing yuzaga kelishiga sharoit yaratdi. Halqaro statistik ma'lumotlarga asosan, hozirda bunday bitimlar lizing bitimlarining asosiy qismini tashkil qiladi.

Avstriyalik iqtisodchi V.Xoyer o'zining «Evropada qanday qilib biznes qilish mumkin», deb nomlangan kitobida keltirishicha, lizing so'zini birinchi ommaviy tarzda ishlatilishi 1877 yillarga borib taqaladi. «Bell» nomli telefon kompaniyasi o'zining telefon apparatlarini sotish o'rniga ularni ijaraga berishni lozim topgan. Ya'ni, ushbu korxona asbob-uskunani faqatgina ijara to'lovi asosida mijozning uyi yoki ish joyiga o'rnatishni joiz topdi. Ikkinchi jaxon urushi davrida, AQSh hukumati rasmiy rentabellik shartnomalaridan faol sur'atlarda foydalandi. Bu ijara biznesi rivojlanishi uchun, rag'batni ta'minlashga yana bir turtki bo'ldi.

Shu davrda, transport vositalari bilan bog'liq biznesda lizing operatsiyalari xajmining oshishi yuz berdi. Avtomobillarni lizingga berish - 1918 yilga borib, keng tarqaldi. Undan so'ng, o'tgan asrning 30-yillarida Genriy Ford avtomobillar sotish samaradorligini oshirish uchun ijaradan foydalandi. Biroq, avtomobil lizingi biznesining qonuniy tus olishiga Zolli Frenkning xizmatlari katta. U o'tgan asrning 40 yillari boshida avtomobillarni uzoq muddatga ijaraga berishni birinchi bo'lib taklif etgan, Chikagolik savdo agentidir.

Rivojlangan mamlakatlarda lizing biznesning alohida bir turi sifatida qaraladi. U lizing mahsulotlarining ishlab chiqaruvchi, ist'emolchilari uchun, shuningdek shu turdagi biznes bidan shug'ullanayotgan moliyaviy vositachilar uchun ham muhim bo'lgan bir qancha vazifalarni hal etadi. Ichki va tashqi bozorlar uchun qattiq raqobat sharoitida asbob-uskunalarining texnik xususiyatlarinigina emas, ayni vaqtda mazkur asbob-uskunalar ist'emolchilarga qo'yiladigan moliyaviy shartlar, shuningdek qo'shimcha xizmatlarham tobora ag'amiyatli bo'lib boradi. Ist'emolchilarning bunday qo'shimcha talablarni qondirishda molyalashtirishning istiqboli usuli bo'lgan lizing to'la-to'kis xizmat qiladi.

Evropa lizing kompaniyalari uyushmalari federatsiyasining ta'rifi ko'ra, lizing deganda ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish uchun asosiy ishoab chiqarish vositalarini, shuningdek boshqa tovarlarni ijaraga olish tushuniladi.

Ayni vaqtda lizing bitimiga ko'ra lizing beruvchi bitim oxirigacha mulkchilik xuquqini saqlab koladi<sup>2</sup>.

Iqtisodiy adabiyotlarda "lizing" - shunchaki ijara to'g'risidagi kengaytirilgan shartnoma yoki "lizing" – ijara munosabatlarining alohida turi yoxud butun ijara muddati davomida ijarachining mulkchilik xuquqi saqlanib qoladigan ijara shartnomasi degan fiklarni tarafdorlari bor. Bunday ta'riflarda avvalo lizingni maqsadi, ijaraga beruvchining mulkchilik xuquqi saqlanib qolishi ta'kidlanadi, amol-mulkini qo'lga kirituvchi tomon aniqlaniladi, ijara munosabatlari qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasining 14 aprel 1999 yildagi "Lizing to'g'risida"gi qonunda lizing ijara munosabatlarining alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi taraf (lizing oluvchi)ning topshirig'iga binoan uchinchi taraf (sotuvchi)dan xaq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasida belgilangan shartlarda berib qo'yish maqsadida mol-mulk(lizing obe'kti)ni oladi, deb belgilangan. Kreditlashdan farqli o'laroq, lizing munosabatlari sharoitida egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish xuquqi mulkdorlik xuquqidan farqlanadi. Agar lizing oluvchi mazkur mol-mulkning sotuvchisini o'zi tanlaydigan bo'lsa, uning bir o'zi qarz oluvchi, ijarachi va xaridor vazifasini bajaradi.

Lizingning kredit, ijara, yollash munosabatlaridan tub farqlari ham kredit, ham lizing munosabatlarining asosini investitsiyalash uchun resurslarni qarzga olish tashkil etadi. Shu bilan birga, kredit munosabatlari bilan lizing munosabatlari o'rtasida muayyan aloqalar ham, muayyan tafovutlar ham mavjud. Kredit nuqtai nazaridan kredit va lizing munosabatlarining farqlari quyida keltirilgan 1-jadvalda o'z aksini topgan.

**1-jadval<sup>3</sup>**

**Kreditor nuqtai nazaridan kredit va lizing munosabatlarining eng muhim farqlari**

| Ko'rsatkichlar | Munosabat turlari |
|----------------|-------------------|
|----------------|-------------------|

<sup>2</sup> Новиков С.Л. Лизинговые изделки. М.: Вершина, 2008, с. 57.

<sup>3</sup> Д.Ф.Ғозибеков, О.Ш.Сабилов ва бошқалар. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. Тошкент, "Fan va texnologiya". 2004 йил, 56-бет.

|                            | <b>Kredit</b>                                                                                                              | <b>Lizing</b>                                                                                                                          |
|----------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ob'ektga mulkchilik huquqi | Mulkchilik huquqi qarz oluvchiga beriladi. Egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqi qarz oluvchiga tegishlidir. | Ob'ektni mulk qilib olish opsiioni mulk huquqini topshirish emas. Egalik qilish va foydalanish huquqi mulkchilik huquqidan ajratiladi. |

Lizing (moliyaviy ijara) ijara munosabatlarning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing ob'ektini) mulk qilib sotib oladi va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga ma'lum muddatga beradi (1-rasmga qarang).

#### Oldi-sotdi shartnomasi



#### 1-rasm<sup>4</sup>. Lizing munosabatlari

Kreditlash sharoitida qarz beruvchining investitsiyasi o'z risklariga ega bo'lgan bank krediti hisobidan amalga oshiriladi, lizing sharoitida esa, investitsiyalar lizing beruvchi tomonidan amalga oshiriladi, qarz oluvchi esa foizlar amortizatsiya ajratmalari (vositachilik xaqi, qo'shilgan qiymat solig'i, lizing beruvchining qo'shimcha xizmatlari) tarzidagi joriy chiqimlarni bo'yniga oladi.

Lizingni iqtisodiy mohiyatini quyidagi ibora orqali ifoda etsa bo'ladi: "Boylik, mol-mulkka egalik qilishdan emas, balki undan foydalanishdan iborat

<sup>4</sup> "Ўзбек Лизинг Интернейшнл" компания маълумотлари

bo'ladi"<sup>5</sup>. Mazkur jumla lizingning asosiy g'oyasini to'liq namoyon etadi. Korxona yoki tadbirkorga ishlash va daromad topish uchun mol-mulkka egalik qilish shart emas, balki muayan muddat davomida undan foydalanishning o'zi kifoyadir. Bu ayniqsa asbob uskunani mulk qilib sotib olish moliyaviy imkoniyatlari cheklangan korxonalar uchun muhimdir. Lizing mexanizmi bunday korxonalarga asbob-uskunadan muayyan muddat davomida maqbul miqdordagi lizing to'lovlari evaziga foydalanish xuquqini qo'lga kiritish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ushbu asbob-uskunadan foydalanish muddati tugagandan so'ng uni korxonaning mulkiga o'tkazish imkoniyati mavjud.

Lizing biznesining bir qancha avzalliklari bor. Asbob-uskunalarni ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini lizing bitimi asosida sotish orqali ularning sotilmay qolish va foydani yo'qatish risklaridan qutiladi. Lizing kompaniyasi esa, o'z navbatida kapitalning xaqiqiy qiymatini saqlab qolish va uni kapitallashtirish maqsadida o'z mablag'larini investitsiyalaydi. Lizing oluvchi esa, o'z mablag'larini mutlaqo sarflamay turib, mol-mulkni qo'lga kiritish, undan foydalanish va uni tasarruf etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayni bir vaqtda lizing oluvchi tadbirkorlik faoliyatini yuritish va lizing mol-mulkini ishlatish orqali foyda olish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Lizing munosabatlari quyidagi afzalliklarga egadir<sup>6</sup>:

- ijara vositasida kapitalga ega bo'lish;
- risksiz kapital investitsiyalarni amalga oshirish;
- lizing ob'ektini sotish;
- molmulkka manfaatli tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish;
- kam mablag' yoki mablag'siz tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish;
- lizing mulkidan samarali foydalanish;
- muayyan zamon va makonda hamda iqtisod sohiblari orasida resurslarni taqsimlash;


---

<sup>5</sup> Шабашев В.А. Лизинг: основы теории и практики: Учебное пособие. М.: КНОРУС, 2007 - 81 с.

<sup>6</sup> Д.Ғозибеков ва бошқалар. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. Тошкент,; Фан ва технология. 2004 йил, 63-бет.

- raqobatda manevr qilish;
- faoliyatning kapital sig'imini pasaytirish;

Lizingni bosh funktsiyasi moliyaviy hisoblanadi, u tadbirkor (lizing oluvchi)ni lizing ob'ektiga uning qiymatini bir yo'la to'lashdan ozod etishda va unga moliyaviy vositachi (lizing kompaniyasi) mablag'i hisobidan lizing krediti berishda nomoyon bo'ladi. Lizing munasabatlari lizing oluvchiga hech qanday pul mablag'i qo'ymay mulkga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish xuquqiga ega bo'lish imkonini beradi. Lizingni moliyaviy funtsiyasi lizing oluvchiga hech qanday sarflarsiz ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish imkonini beradi.



**2-rasm<sup>7</sup>. Lizingning asosiy funktsiyalari**

Lizing bitimlarni amalga oshirish jarayonidagi xuquqiy munosabatlar, shu jumladan investitsiyalash va tovar bilan kreditlash munosabatlari, oldi-sotti

<sup>7</sup> Д.А.Ғозибеков ва бошқалар. Лизинг муносибати назарияси ва амалиёти. Тошкент.: Фан ва технология, 2004 й., 55 бет.

xuquqiy munosabatlari, ijaraga oid xuquqiy munosabatlar va mulkiy kafolat munosabatlari lizing bitimlarining asosiy qatnashchilari o'rtasida shakllanadi. Ular o'rtasida ushbu xuquqiy munosabatlar majmuasi qarz olish va investitsiyalash, tovar bilan kreditlash va ijaraga oid munosabatlar, lizing mulkini xarid qilish shartlari, lizing bitimlarini sug'urtalash va soliqqa tortish, lizing to'lovlarini to'lash munosabati bilan yuzaga keladi.

Lizing munosabatlari tizimida, avvalo, mulkni o'zgartirish, mulkni etkazib berish, ijaraga olishni moliyalash, kelishuv tartiblari va risklarini baholash, lizing to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha bitim tuzish va o'zaro manfaatli munosibatlarni ko'zda tutadi. Lizing munosabatlari faqat lizingga beriladigan mulk o'zi uchun katta talabga ega bo'lganda, mazkur mulkka doimiy ehtiyoj bo'lganda va shu munosabatlar yuzaga chiqishidan manfaatdor muayyan infratuzilmada bo'sh moliyaviy resurs, shuningdek, tegishli investitsiyaviy moliyaviy vosita mavjud bo'lgandagina shakllanishi mumkin.


Lizing munosabati tadbirkorlik shakllaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan investitsiyalarni ijara shaklida moliyalashdan foydalanuvchi va lizing mulkini tayyorlovchilar ta'biriga lizing munosabatlariga turlicha yondashishlarni aks ettiruvchi biznesning asosiy turi degan fikrga qo'shilish to'g'ri bo'ladi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bozorga o'tish davrila lizing ijtimoiy ishlab chiqarishni texnikaviy jihatdan yangilashning va mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirishning qudratli vositasi sifatida namoyon bo'lgan. Tadbirkorlik tuzilmalarda moliyaviy resurslar cheklangan sharoitlarda lizing ham mikro darajada, ham butun milliy iqtisod miqyosida asosiy kapitalga moliyaviy investitsiyaning usullarining o'rnini bosishi mumkin.

Quyidagilar lizing munosabatlarning paydo bo'lish shakllari hisoblanadi:

- qarzga olish (kredit olish), investitsiyalash;
- xususiy mulk munosabati (lizing oluvchi topshirig'iga ko'ra mulkni sotib olish va ijaraga berish);
- mulkiy munosabat (egallik qilish, foydalanish, mulkiy xuquqqa ko'ra tasarruf etish xuquqining alohidaligi);

- xuquqiy munosabat (lizing ishtirokchilarining o'zaro mas'ullik munosabatlari);
- taqsimlash munosabatlari (lizing oqibati sifatida);
- lizing mohiyatidan kelib chiqadigan ijara munosabatlari (egalik, foydalanish, tasarruf etish munosabatlari va lizing beruvchi oldidagi ma'suliyat).



### 3-rasm<sup>8</sup>. Lizing tasnifi

Hozirgi kunda jaxon amaliyotida lizingni xilma-xil turlarini O'zbekiston Respublikasining 1999 yilda qabul kilingan "Lizing to'g'risida"gi qonunda lizingning ikki turi: moliyaviy va operativ turlari belgilangan. Bu qonunda moliyaviy va operativ lizingdan tashqari qo'shimcha lizing alohida ko'rsatilgan, shunga muvofiq lizing oluvchi lizing beruvchining yozma roziligi bilan lizing ob'ektini vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun uchinchi shaxsga topshirishga xaqli.

2002 yil 13 dekabrda qabul kilingan "O'zbekiston Respublikasini ayrim qonun xujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunga binoan "Lizing to'g'risida"gi qonunda lizingni moliyaviy turi qoldirildi.

Ishtirok etuvchilar tarkibiga qarab bevosita lizing va bilvosita lizingga bo'linadi. Bilvosita lizing o'z navbatida uch tomonlama lizing va ko'p tomonlama lizingga bo'linadi. Mulk turiga qarab ko'chmas mulk lizingi va ko'char mulk lizingi. Sarflangan xarajatlarini qoplay olishiga qarab to'liq lizing va to'liq bo'lmagan lizingga bo'linadi. .

Amortizatsiya shartlariga ko'ra to'liq amortizatsiyali lizing va to'liq bo'lmagan lizingga bo'linadi. Xizmat ko'rsatish xajmiga qarab sof lizing, to'la xizmat ko'rsatiladigan lizingga va xizmat turlarining faqat bir qismigagina yuklatiladigan lizingga bo'linadi. Bozor sektoriga qarab ichki lizing va tashqi (xalqaro) lizingga bo'linadi. Tashqi lizing o'z navbatida eksport lizing va import lizingga bo'linadi. Soliq hamda amortizatsiya imtiyozlariga qarab xaqiqiy lizing va soxta lizingga bo'linadi. To'lov xususiyatlariga qarab pulli lizing, o'rnini koplovchi lizing va aralash lizingga bo'linadi. Jaxon

---

<sup>8</sup> А.Ғоziбеков ва бошқалар. Лизинг муносабати назарияси ва амалиёти. Тошкент.: Фан ва технология, 2004 й., 62 бет.

iqtisodiyotida eng ko'p uchraydigan lizingni turlaridan ayrimlarini kurib o'tamiz<sup>9</sup>.

Moliyaviy lizing - o'z mohiyatiga ko'ra lizing ob'ektning barcha qiymatini to'lashni taqazo etadi. Bunda lizing asosida egalik qilish hamda foydalanish maqsadida ijaraga berilayotgan mulkning muddati amortizatsiya muddatiga yaqinlashadi. Lizing shartnomasi amal qilayotgan muddat mobaynida lizing beruvchi tashkilot lizing to'lovlari vositasida mulkning barcha qiymatini o'ziga qaytaribgina qolmay, balki bundan foyda ham oladi. Bunda lizing ob'ektiga xizmat ko'rsatish hamda uni sug'urtalash bilan bog'liq barcha majburiyatlar lizing oluvchi zimmasiga yuklatiladi. Shartnomaning amal qilish muddati tugashi bilan ijaraga oluvchi ijaraga olingan ob'ektni ijaraga beruvchiga qaytarib berishi, ushbu uskunalarini ijaraga olish haqida yangi shartnoma tuzishi, lizing ob'ektini qoldiq bahosi bo'yicha sotib olishi mumkin.

Operativ lizing - lizingning bu turi uskunani (mulkiy xuquqlar) amortizatsiya davridan kam muddatga berilishi bilan farqlanadi va lizing to'lovlari lizing beruvchining barcha xarajatlari o'rnini to'la qoplamaydi. Shu munosabat bilan lizing beruvchi o'z sarf xarajatlarini va ko'zlangan foydani olish uchun bu mulkni lizing shartlari asosida bir necha marotaba ijaraga berishga majbur bo'ladi. Lizing ob'ektiga extiyoj bo'lmagan holda lizing mulkini qaytadan lizingga berish xavfi ortadi. Shuning uchun operativ lizing stavkasi moliyaviy lizing stavkasiga nisbatan ancha yuqori buladi. Shartnomaning amal qilish muddati tugagach shartnoma ob'ekti egasiga qaytarilishi yoki yangidan ijaraga berilishi mumkin.

Bevosita lizing - bu ikki tomonlama operatsiya bo'lib, bunda uskunani ishlab chiqaruvchi lizing ob'ektini mustaqil ravishda lizing shartlari asosida ijaraga beradi. Bu lizing turiga binoan, bir shaxs ayni vaqtda ikki sub'ekt ham uskunani etkazib beruvchi, ham lizing beruvchi vazifasini bajaradi.

---

<sup>9</sup> Д.А.Ғозибеков ва бошқалар. Лизинг муносибати назарияси ва амалиёти. Тошкент.: Фан ва технология, 2004 й., 61 бет.

Qaytariladigan lizing - bunda lizing beruvchi kompaniya boshqa bir tashkilotdan (lizing oluvchidan) mulkni sotib olib, uni qaytadan shu tashkilotning o'ziga (lizing oluvchiga) lizing shartnomasi asosida ijaraga beradi. Bunday lizing muomalasi davrida lizing ob'ekti o'z joyini o'zgartirmaydi. Aloxida lizing - bunda lizing tomonidan ob'ekt qiymatining faqat ma'lum bir qismigina moliyalanadi. Ta'kidlab o'tish joizki, qiymat loyixalarni amalga tadbiq etishda ko'p tomonlama moliyalash bilan bog'liq bo'lgan lizing operatsiyasining murakkab turi - alohida lizingdan foydalangan maqsadga muvofiqdir. Lizingning bu turiga binoan lizing beruvchi shaxs lizing shartlari asosida lizing oluvchi sub'ekt uchun sotib olayotgan uskuna umumiy qiymatining faqat ma'lum bir qisminigina o'z mablag'lari, qolgan qismini esa bir yoki bir necha kreditordan olgan qarz mablag'lari hisobiga xarid qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan barcha lizing operatsiyalarining 85 foizi aynan mana shu lizing turiga to'g'ri kelmoqda.

Revolverli lizing - bu lizing turiga binoan lizing oluvchi texnologiya bo'yicha lizing shartlari asosida ijaraga olayotgan uskunani ketma-ket almashtirilishi taqazo etiladi. Bunda lizing oluvchi shaxs shartnomaga muvofiq muayyan davr o'tishi bilan ijaraga olingan mulkni bohasiga almashtirishga xaqli hisoblanadi<sup>10</sup>.

Sof lizing - bunda lizinga (ijaraga) olingan texnologiya bo'yicha barcha xarajatlar jumladan, ishga tushirishgacha bo'lgan xarajatlar, ta'mirlash, sug'urtalash xarajatlari ijarachi zimmasiga yuklatiladi. Lizing beruvchi texnologiyani ishchi xolatida bo'lishini ta'minlashi zarur. Ijarachi lizing muddati tugagandan sung texnologiyani ijaraga beruvchiga yaxshi xolatda qaytarishi zarur.

To'la xizmat ko'rsatiladigan lizing - bu lizing turiga kompleks xizmat ko'rsatish tizimi, ta'mirlash, sug'urtalash, shuningdek xom-ashyoni etkazib berish, malakali kadrlar tayyorlash, marketing, xattoki ijarachi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ijaraga beruvchi tomonidan reklama qilish va

---

<sup>10</sup> Шабашев В.А. Лизинг: основы теории и практики: Учебное пособие. М.: КНОРУС, 2007 - 81 с.

xakazolar bilan bog'liq xarajatlarni ham o'z zimmasiga olishi mumkin. Bunda lizing kompaniyasi bilan ijarachi o'rtasida mustaxkam xamkorlik bo'lishi uchun manfatdordirlar, shuningdek shartnomani amal qilish davrida obe'ktdan to'g'ri foydalanganligini doimiy nazorat qilib turadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga binoan, lizing to'lovi-bu lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchiga to'lanadigan xamda lizing obe'ktini sotib olish va lizing stavkasi bilan bog'liq barcha sarf xarajatlarni o'z ichiga olgan pul summasidir. Lizing kelishuvida lizing beruvchi, lizing oluvchi va mulkni sotuvchilardan tashqari, kredit beruvchi muassasalar, banklar, sug'urta xamda maslaxat kompaniyalari, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvatlovchi va tartibga soluvchi davlat organlari xam ishtirok etishlari mumkin<sup>11</sup>.

Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2006 yil 21 oktyabrda tasdiqlangan 25/6-sonli «Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida»gi Nizom amal kiladi. Ushbu tartib lizing operatsiyalarini o'tkazish jarayonida bank bilan lizing beruvchi, shuningdek, lizing oluvchi bilan lizing obe'ktini ishlab chiqaruvchi sub'ekt o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi.

## **1.2. Moliyaviy lizingni tashkil etishning huquqiy asoslari**

Mamlakatimizda lizing munosabatlarining xuquqiy asosi yaratilgan. Jumladan:

1. O'zbekiston Respublikasining “Lizing to'g'risida”gi Qonuni, 1999 yil 14 aprel;
2. O'zbekiston Respublikasining “Ijara to'g'risida”gi Qonuni, T.: “O'zbekiston”, 1991 yil 19 noyabr;

---

<sup>11</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Лизинг тўғрисида”ги қонуни 14 апрель 1999 й.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Lizing faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, 2002 yil,

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2006 yil 21 oktyabrdagi "Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizom va boshqalar mamlakatimizda lizing munosabatlarini amalga oshirish tartiblarini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2006 yil 21 oktyabrdagi "Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan:

Lizing (moliyaviy ijara) — bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing ob'ektini) mulk qilib sotib olishni va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga o'n ikki oydan ortiq muddatga berishni nazarda tutadigan ijara munosabatlarining alohida turi. Bunda lizing shartnomasi quyidagi shartlardan biriga muvofiq bo'lishi kerak:

➤ lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing ob'ekti lizing oluvchining mulki bo'lib o'tsa;

➤ lizing shartnomasining muddati lizing ob'ekti xizmat muddatining 80 foizidan ortiq bo'lsa yoki lizing ob'ektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining 20 foizidan kam bo'lsa;

➤ lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing ob'ektini uning bozor qiymatidan past narxda sotib olish huquqiga ega bo'lsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing ob'ekti qiymati asos bo'ladi;

➤ lizing shartnomasi amal qiladigan davr uchun lizing to'lovlarining umumiy summasi lizing ob'ekti qiymatining 90 foizidan ortiq bo'lsa.

Mikrolizing - tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining ikki ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladigan lizing,

Lizing shartnomasi - lizing amaliyotida tomonlarning o'zaro munosabatlarini belgilab beradigan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yozma shaklda tuziladigan hujjat.

Lizing ob'ektlari - tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk (er uchastkalari va boshqa tabiiy ob'ektlar, shuningdek muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo'lishi cheklangan boshqa mol-mulklar lizing ob'ekti bo'lishi mumkin emas);

Lizing sub'ektlari - lizing beruvchi, lizing oluvchi hamda sotuvchi;

Lizing beruvchi - lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing ob'ektini mulk qilib oluvchi bank;

Lizing oluvchi - lizing shartnomasi bo'yicha lizing ob'ektini egalik qilish va foydalanish uchun olayotgan yuridik shaxs;

Sotuvchi - lizing ob'ektini lizing beruvchiga sotadigan shaxs;

Lizing shartnomasi muddati - lizing shartnomasi bo'yicha tomonlar majburiyatlarining to'la bajarilguncha bo'lgan davr;

Avans to'lov – lizing oluvchi tomonidan lizing shartnomasida nazarda tutilgan hamda lizing to'lovlarini qaytarish jadvalida ko'rsatib o'tilgan dastlabki to'lov summasi;

Lizing bo'yicha foizlar – lizing beruvchi tomonidan lizing operatsiyasini amalga oshirish natijasida lizing oluvchidan oladigan foiz daromadi. Ushbu foiz daromadi lizing ob'ekti dastlabki tan olingandan boshlab bank balansining foizli daromad hisobraqamlarida hisoblab boriladi.

## 2-jadval

### Lizing mulki sotuvchisi uchun lizing operatsiyalarining ustunliklari<sup>12</sup>

| Sifat ustunliklari | Ustunlik omillari                                                                                            |
|--------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                    | Iste'molchilar doirasini quyidagilar hisobiga kengaytiradi; doimiy ravishda texnikaga egalik qilishga muhtoj |

<sup>12</sup> Д.Ф.Ғозибеков, О.Ш.Сабилов ва бошқалар. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. Тошкент, “Fan va texnologiya” 2004, 68-бет.

|                                                                                                      |                                                                                                                                                                              |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Faol marketingni o'tkazish                                                                           | bo'lmaganlar; uskunalarni mulk sifatida olish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar; texnikani avvalo ishda sinab keyin olmoqchi bulganlar; ijara shartida foydalanmoqchi bulganlar. |
| To'laonli aloqaning urnatilishi                                                                      | Uskunalarining konstruktiv kamchiliklarini tezkor ravishda aniqlash.                                                                                                         |
| Mahsulot etishtirilishini kengaytirish va ularni yangilash imkoniyatlarini qo'lga kiritish.          | Modellar almashishining tezlanishi va buning asosida yangi bozorlarni qo'lga kiritish.                                                                                       |
| To'lanmaslik risklarini oldini olish.                                                                | Lizing kompaniyasi lizing shartnomasi to'lovini va kafolatlarini o'z zimmasiga olishi.                                                                                       |
| Samarali reklama vositasi.                                                                           | Lizing mulkini ishlatish davrida monitoring doirasi kengaytirish va bo'lajak oluvchilarning qiziqishining oshishi                                                            |
| Lizing uskunasi ehtiyot qismlari va komplektlariga talab oshishi.                                    | Lizing mulkini ishlatilishi turli zahira qismlarini etkazib berish talabini chiqarish.                                                                                       |
| Yo'naltirilgan investitsiyalarni bo'shatilishi                                                       | Uskunalarini tezda sotish natijasida ishlab chikaruvchida uning yo'naltirilgan investitsiyalari qisman bushaydi                                                              |
| Mulk ishlab chikaruvchisi (mulkdor) tomonidan sotilmagan mulkni foydalanish samarasini ko'tarilishi. | Belgilangan muddatga qaytarib berish sharti bilan lizingga beriladi.                                                                                                         |

Lizing mulki sotuvchi uchun lizing operatsiyalarining ustunliklarini bir-biriga bog'langan ikkita omil orqali baholash mumkin: sifat ustunliklari va ustunlik omillari.

Sifat ustunliklarida lizing munosabatlari jarayonidagi raqobat, lizing bo'yicha yuqori daromad manbalari ko'rib chiqilsa, ustunlik omillarida lizing xizmatining o'ziga xosligi va boshqa turdosh moliyalashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

### 3-jadval

#### Lizing beruvchi uchun lizing operatsiyalarining strategik ustunliklari<sup>13</sup>

| Strategik ustunliklar                          | Mazkur ustunliklarii ta'minlaydigan omillar                                                                                                                                                                                                                               |
|------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Kreditor himoya darajasining oshishi.          | Bitishuv lizing ob'ektining uzi bilan ta'minlanadi(kafolatlanadi).Foydalanuvchi bankrot bulgan taqdirda lizing ob'ekti mulkdorga qaytariladi. Lizing beruvchi tomonidan tulanmagan takdirda lizing ob'ekti talab qilib olinishi va zararni qoplash uchun sotilishi mumkin |
| Soliq sohasidagi imtiyozlar, lizingning davlat | Lizing oluvchi hisobidan soliq imtiyozlari olish imkonini beradi va soliq shartlari turlicha bulgan taqdirda lizing beruvchiga lizing                                                                                                                                     |

<sup>13</sup> Д.Ф.Ғозибеков, О.Ш.Сабиров ва бошқалар. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти., “Fan va texnologiya” 2004 йил, 70-бет

|                                                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|----------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| tomonidan qullab-quvvatlanishi                                             | bitimidan qushimcha manfaatni ta'minlaydi.                                                                                                                                                                                                                                               |
| Ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi va diversifikatsiya qilinishi | Lizing munosabatlari sohasiga yangi sub'ektlar jalb etiladi va shu tariqa tovar ishlab chiqaruvchilar uchun sotish bozori kengayadi. Texnikaga to'lov qobiliyatli talab qullabquvvatlanadi, yangi mahsulot ishlab chiqarish miqyosi va sifati kengayishi uchun imkoniyat vujudga keladi. |
| Davlat manfaatlarining ruyobga chiqishi                                    | Ishlab chiqarishni texnika va texnologiya bilan qayta qurollantirish jadallashadi. Mamlakat iqtisodiyotiga xususiy investitsiyalar jalb etiladi. Tadbirkorlik faollashuvi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish kengayisha hisobiga byudjetga soliq tushumlari kupayadi.           |
| Lizing beruvchilarning moliyaviy barqarorligi oshishi.                     | Investitsiya harajatlari va daromadlari bab-baravar namoyon buladi.                                                                                                                                                                                                                      |
| Moliyaviy leveraj (vosita)ning samarasi                                    | Lizing beruvchilar uchun lizing ob'ektidan har yilgi moliyaviy manfaatlar, odatda, kredit bo'yicha foizlardan yuqori buladi.                                                                                                                                                             |

Lizing oluvchi uchun lizing tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, uning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va ishlab chiqarish texnik salohiyatni oshirish uchun investitsiyalarni moliyalashtirishning muqobil usuli buladi.

Har bir strategik ustunliklarni ta'minlaydigan omillar mavjud va ular birlari bilan chambarchas bog'liq.

Lizing bozor infratuzilmasining ajralmas qismi bo'lib, mamlakatimiz uchun nisbatan yangi moliyaviy dastakni o'zida mujassam etadi. 90yillarning birinchi yarmida bozor islohotlari natijasida bank, kredit muassasalari va korxonalar ilgari iqtisodiyotimizda qullanilmagan kupgina moliyaviy dastaklardan foydalana boshladilar, Ayni shu yillarda lizing tuzilmalarini faol tashkil etish, iqtisodiyotning ushbu sohasiga investitsiyalarni jalb qilish, lizing munosabatlarning huquqiy asoslarini shakllantirish boshlandi.

Lizingning bir qator afzalliklari bor, unga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tezkor lizingning soddaligi va qulayligi;
- lizing shartnomasini bekor qilish va lizing mol-mulki barvaqt ma'naviy eskirish riskini kamaytirish mumkinligi;
- lizing mol-mulkiga mustaqil xizmat ko'rsatish imkoniyatini olish;

- qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirishga nisbatan chiqimlarning birmuncha pastroq darajasi;
- ko'plab mamlakatlarda lizing beruvchilar va lizing oluvchilar uchun yaratiladigai soliq qalqonidan foydalanish mumkinligi.

Lizing munosabatlarining barcha qatnashchilari uchun lizingning yuqorida kursatilgan ustunliklari muvofaqiyatli amalga oshirishni, avvalo ular faoliyat kursatayotgan iqtisodiy muhit bilan belgilanadi. Mamlakat qonunchiligi, shu jumladan, soliqqa oid qonun hujjatlari lizingning potentsial ustunliklarini kup jihatdan belgilab beradi. Xalqaro lizingda qatnashuvchilar uchun ustunliklar lizing shartnomasida qatnashuvchi mamlakatlarning qonunchiligi bilan belgilanadi. Lizingni baholashda amaldagi soliq qonunlarini hisobga olib risklar va manfaatlarning hisob-kitobi muhimdir. Lizing beruvchi lizing oluvchiga qarz berganida ancha yuqori darajadagi riskni zimmaga olganligi sababli yuqoriroq diskont stavkasiga loyiq buladi. Shu sababli lizing shartnomasini baholaganda lizing krediti yuzasidan qilingan sof chiqimlarni belgilash bosh masaladir.

#### 4-jadval

##### Lizing oluvchi uchun lizing operatsiyalarining strategik ustunliklari<sup>14</sup>

| Ustunliklar                                                                                           | Mazkur ustunliklarni ta'minlaydigan omillar                                                                                                                                                                                                                                          |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| O'zining ilk kapitaliga ehtiyojning pasayishi                                                         | Avvaliga bitishuv tula-tukis lizing beruvchi tomonidan moliyalanadi. Zarur asbob-uskuna haqini bir yo'la tulash talab qilinmaydi, bu esa foydalanuvchining likvid mablag'ini ozod qiladi va uning ishlab chiqarishni kengaytirish uchun potentsial aylanma kapitalining kupaytiradi. |
| To'lovlar tizimining moslanuvchanligi                                                                 | Birinchi to'lov muddatini uzaytirish, bulak va boshqa shakldagi to'lovlarni asta-sekin kupaytirish yoki kamaytirish mumkin. Lizingga olingan asbob-uskunada ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar shaklida foydadan to'lovlarni amalga oshirish mumkin.                              |
| Transaksiyalardagi tejash                                                                             | Lizing beruvchidan mol-mulkni sotib olish, saqlash,tugatish va sotishdagi sermehnat operatsiyalarga ehtiyoj bo'lmasligi hisobiga ma'muriyat chiqimlar kamayadi.                                                                                                                      |
| Soliq imtiyozlari, lizingning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi                                  | Kupchilik mamlakatlarda lizing oluvchilar uchun lizing to'lovlarini sundirish davrida soliq sohasida qushimcha imtiyozlar beriladi.                                                                                                                                                  |
| Asbob-uskunaning ma'naviy eskirishi munosabati bilan tovar ishlab chiqaruvchi uchun risklar kamayishi | Asbob-uskunaning ma'naviy va jismoniy eskirishi riski lizing beruvchiga utadi.Foydalanuvchi yangi asbobuskunani ijaraga olishi mumkin.                                                                                                                                               |
| Lizing oluvchining ilmiyishlab chiqarish salohiyatining ortishi                                       | Lizingda bir xil ilk kapital foizli kreditni xarid qilgandan ko'ra ancha kuproq ishlab chiqarish quvvatlarini ishga solish imkonini beradi.                                                                                                                                          |
| Tadbirkorning iqtisodiy erkinligi kengayishi                                                          | Lizing ob'ektini sotib olish, shartnoma muddatini uzaytirish va yangi zamonaviy asbob-uskuna xarid qilish yo'llaridan birini tanlash.                                                                                                                                                |
| Tovar ishlab- chiqaruvchining                                                                         | Lizing ob'ekti lizing beruvchining mulki bo'lib, uning balansida hisobda                                                                                                                                                                                                             |

<sup>14</sup> Д.Ф.Ғозибеков, О.Ш.Сабиров ва бошқалар. Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти., “Fan va texnologiya” 2004 йил, 70-бет

|                                                                                 |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
|---------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| buxgalteriya hisobkitobini maqbullashtirish sohasida ko'radigan manfaati        | turadi va unga amortizatsiya ajratmalari hisoblab yoziladi.                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| Lizing oluvchining moliyaviy manfaatlari                                        | Moliyalashning odatdagi manbalari (banklar, etkazib berunchilar va boshqalar)ga qaramlik kamayadi. Lizing ob'ektidan foydilanuvchi soliqqa tortilmaydi. Lizing shartnomasini olish ssuda olishdan ko'ra osonroq va foydaliroq. Barqaror to'lovlar inflyatsiyaning ta'sirini va uzoq muddatli ssudalar bo'yicha bank foizlari usishini pasaytiradi. |
| Lizing ob'ektining yangi turlarini uzlash kamayishi                             | Talab etarli bo'lmagan taqdirda ijaraga olingan mol-mulkni lizing beruvchiga qaytarish mumkin.                                                                                                                                                                                                                                                     |
| Raqobat sohasida ustunliklar olinishi                                           | Ishlab chiqarishni yanada zamonaviy asbobuskuna bilan qurollantirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun sharoit yaratadi.                                                                                                                                                                                                             |
| Shartnoma muddatiga asosanib, lizing ob'ektining jadal amortizatsiya qilinishi. | Eskirgan asbobuskunani operativ yangilash va ishlab chiqarishni texnika bilan qayta qurollantirish imkoniyati kengayadi. Soliq solinadigan foyda hajmi kamayadi. Fan-texnika taraqqiyoti jadallashadi.                                                                                                                                             |

Lizing operatsiyalari moliyaviy barqaror bulgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga to'lovlilik, ta'minlanganlik, bank tomonidan lizing ob'ektini sotib olishga investitsiya qilingan kredit mablag'larini qaytarishlik va maqsadga muvofiq foydalanishlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Lizing operatsiyasi lizing ob'ekti lizing oluvchi tomonidan bevosita tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida ishlatilishi ko'zda tutilgan hollarda ko'rsatiladi.

Lizing bo'yicha moliyaviy ijaraga olingan mol-mulkning tasodifan nobud bo'lishi, yuqolishi, o'g'irlanishi, shikastlanishi, buzilishi va barvaqt eskirishi xavfi bilan bog'lik bo'lgan tarzdagi har qanday etkazilishi mumkin bo'lgan zarardan lizing ob'ektini sug'urtalash taraflarning kelishuviga binoan sug'urtalanadi. Bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda, lizing oluvchi lizing ob'ekti sug'urtasi uchun javobgar bo'ladi.

Lizingning afzalligini belgilashda xilma-xil omillar shart qilib quyiladi. Lizing beruvchi bilan lizing oluvchi bitta soliq tokchasida ekakligi aniqlansa, ikkalasi ham bir xil pul mablag'lari oqimini oladi, ammo bunda muqobil belgilar mavjud buladi, ya'ni lizing beruvchi faqat lizing oluvchi hisobiga kuproq manfaat kurishi mumkin va aksincha. Basharti lizing oluvchining soliq stavkasi lizing beruvchining soliq stavkasidan kamroq bulsa, bu holda ikkovlari ham tulanmagan soliq hisobidan manfaat ko'radi. Soliq qonunchiligining, bank

kreditni uchun foiz stavkalarining tayinli emasligi lizingning haqiqiy ustunliklarini aniqlash imkoniyatini qiyinlashtiradi.

Lizing beruvchi va lizing oluvchi o'zaro kelishgan holda qonun hujjatlariga muvofiq lizing ob'ektini jadal amortizatsiya qilishni qo'llash huquqiga ega.

Lizing oluvchi lizing shartnomasini tuzish uchun uning asosiy depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatayotgan bankka quyidagi hujjatlarni takdim etishi lozim:

- lizing buyurtmasi;
- lizing ob'ektining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va uning sotuvchisi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- lizingning butun davrini ichiga olgan pul oqimi tahlili ko'rsatilgan biznes-reja;
- oxirgi hisobot sanasiga tuman (shahar) davlat soliq inspeksiya tomonidan qabul qilingan buxgalterlik balansi (1 -shakl), moliyaviy natijalari haqida hisobot (2-shakl), muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqidagi ma'lumotnoma (2a-shakl), 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorlikni solishtirish dalolatnomalari.

Lizing beruvchi banklar lizing berish yuzasidan qaror qabul qilish uchun lizing oluvchidan uning lizing to'lovlarini amalga oshirish imkoniyatlarini baholash uchun zarur bulgan hujjatlarni so'rab olishlari mumkin.

Buyurtma lizing beruvchi bank tomonidan ko'rib chiqilayotganda quyidagilarning tahlili amalga oshiriladi:

- buyurtma beruvchi daromadlarining lizing to'lovlarini amalga oshirish uchun etarliligi;
- buyurtmada bayon etilgan ma'lumotlarning bir-biriga zid emasligi;
- lizing beruvchi bank oldidagi majburiyatlarni buyurtma beruvchi tomonidan o'z vaqtida bajarish imkoniyatining mavjudligi.

Lizing ob'ekti shartnomaga muvofiq lizing beruvchi bank tomonidan lizing ob'ektini sotib olishga, lizing ob'ektini etkazib berish va

belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog'liq va boshqa xarajatlarini qaytarish hamda lizing daromadi (foizi) to'lovini amalga oshirish ta'minoti vazifasini bajarishi mumkin.

Bunda lizing ob'ekti lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchi bank foydasiga yo'qolish va shikastlanish xodisalaridan ixtiyoriy sug'urta qilinishi va bu to'g'risida sug'urta polisini bankka taqdim etilishi shart.

Lizing beruvchi lizing operatsiyasini amalga oshirish natijasida sarflangan mablag'larning qaytarilishi va lizing foizi to'lanishining kafolati sifatida lizing oluvchidan boshqa ta'minot shakllarini takdim etishni talab qilishi mumkin.

Lizing foiz stavkalari miqdori lizing oluvchi va lizing beruvchi bank o'rtasidagi o'zaro kelishuvga ko'ra lizing shartnomasida belgilanadi.

Lizing oluvchining buyurtmasi bo'yicha lizing beruvchi bank tomonidan lizing operatsiyasini amalga oshirish yoki oshirmaslik to'g'risida qaror qabul qilish muddati buyurtma bankka kelib tushgan kundan boshlab 30 ish kunidan, lizing operatsiyasini amalga oshirish bo'yicha esa 10 ish kunidan oshmasligi lozim.

Lizing operatsiyasini amalga oshirish asoslantirilgan xolda rad etilgan taqdirda, lizing beruvchi bank lizing oluvchiga bu xakda rad etish sababini asoslagan holda yozma shaklda ma'lum qilishi shart.

Lizing operatsiyasini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, bu hakda lizing oluvchiga bildiriladi hamda lizing beruvchi bank va lizing oluvchi o'rtasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lizing shartnomasi tuziladi.

Lizing ob'ekti hisoblangan mol-mulk bo'yicha tuziladigan bitimlar qonunga muvofiq notarial tasdiqlanishi talab qilinadigan hollarda lizing shartnomasi notarial tasdiqlanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, lizing shartnomasi quyidagi shartlardan biriga javob berishi kerak;

a) lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing ob'ekti lizing oluvchining mulki bo'lib o'tsa;

b) lizing shartnomasining muddati lizing ob'ekti xizmat muddatining 80 foizidan ortiq bulsa yoki lizing ob'ektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining 20 foizidan kam bo'lsa;

v) lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing obektini uning bozor qiymatidan past narxda sotib olish huquqiga ega bo'lsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing ob'ekti qiymati asos bo'ladi.

g) lizing shartnomasi amal qiladigan davr uchun lizing to'lovlarining umumiy summasi lizing ob'ekti qiymatining 90 foizidan ortiq bo'lsa.

Lizing shartnomasi tuzilganidan so'ng lizing beruvchi bank va sotuvchi o'rtasida lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi. Bunda lizing beruvchi bank sotuvchiga mol-mulk muayyan lizing oluvchiga berish uchun sotib olinayotganligini bildirishi shart.

Lizing obektini foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi imzolanib, mulkka egalik qilish va undan foydalanish huquqi lizing oluvchiga o'tganidan sung lizing operatsiyasi amalga oshirilgan hisoblanadi.

Lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing ob'ekti sotuvchi tomonidan bevosita lizing oluvchiga u turgan joyda topshiriladi.

Foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi lizing oluvchi tomonidan rasmiylashtiriladi va lizing beruvchi bank, lizing oluvchi hamda sotuvchi tomonidan imzolanadi.

Lizing ob'ekti etkazib berilmagan, tuliq etkazib berilmagan, etkazib berish muddati o'tkazib yuborilgan yoki sifati talab darajasida bo'lmagan lizing ob'ekti etkazib berilgan takdirda, agar shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing oluvchi:

- lizing to'lovini amalga oshirishni kechiktirish;
- etkazib beriladigan lizing ob'ektidan voz kechish;
- lizing shartnomasining bekor qilinishini lizing beruvchidan talab etish;

- lizing shartnomasini bajarmaslik yoki tegishlicha bajarmaslik natijasida etkazilgan zararlarni tulashni lizing beruvchidan talab qilishga haqlidir.

Lizing beruvchi bank har bir lizing operatsiyasi bo'yicha lizing yig'ma jildini shakllantiradi.

Lizing yig'ma jildda quyidagi hujjatlar bo'lishi lozim:

- lizing oluvchining buyurtmasi;
- lizing shartnomasi;
- lizing oluvchining oxirgi hisobot sanasiga buxgalteriya balansi;
- lizing oluvchining lizing bo'yicha biznes-rejasi;
- lizing oluvchining to'lov qobiliyati va uning biznes-rejasining samaradorligi to'g'risida lizing beruvchi bankning xulosasi;
- sug'urta kompaniyasining lizing ob'ektini sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi;
- lizing beruvchining lizing ob'ektini lizing oluvchiga etkazib berilishi to'g'risidagi buyurtmasi;
- lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasi;
- lizing ob'ektini foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi;
- lizing ob'ektiga sotuvchi tomonidan berilgan texnik kafolat;
- lizing operatsiyasi hamda ta'minoti xarakteridan kelib chiqqan holda olingan boshqa hujjatlar.

Lizing shartnomasi yuzasidan qo'shimcha kelishuv tuzilgan taqdirda, u ham lizing oluvchining lizing yig'ma jildiga tikib quyiladi.

Lizing oluvchi lizing shartnomasida belgilangan muddat davomida lizing ob'ektiga egalik qilish va undan foydalanish huquqini oladi.

Lizing oluvchi tomonidan lizing shartnomasi bo'yicha o'zida paydo bo'lgan huquq, majburiyat va boshqa manfaatlarni uchinchi shaxsga o'tkazish (qo'shimcha lizing)ga faqat lizing beruvchining yozma roziligi asosida ruxsat etiladi.

Lizing oluvchi sotuvchi tomonidan lizing ob'ektiga berilgan texnik kafolatdan foydalanadi.

Lizing ob'ektini uz vaqtida etkazib berilishi va butlanishi xamda uni urnatishga doir majburiyatlarning bajarilishi bo'yicha sotuvchidan talab qilish huquqini lizing oluvchi o'z zimmasiga olishi lizing shartnomasida belgilanishi mumkin.

Lizing operatsiyalari bank biznesida keng tatbiq etila boshlandi, chunki ular tijorat banklari uchun bir qator muhim afzallik keltiradi:

- mazkur bank tuzilishi aniq ta'minotga ega bo'ladi;
- lizing operatsiyalari va u bilan bog'liq xizmatlar muntazam kengayadi;
- lizing yordamida mijozlarga xizmat kursatish sifatini oshirish imkoni tug'iladi va bu bilan mijozlar doirasi kengayadi;
- o'z ishlab chiqarish fondini yangilashga muhtoj mijozlar bilan sifat jihatdan yangicha sheriklik munosabatlari o'rnatiladi.

Bank uchun lizing operatsiyasining afzalligi shundan iboratki, uning samaradorligi etarli darajada yuqori buladi. Lizing to'lovlari orqali bank lizing oluvchilarga ko'rsatgan xizmati uchun komission to'lovlar olish hisobiga o'z daromadini to'ldirishning sifat jihatdan yangi manbaiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, tijorat banki, lizing biznesini rivojlantirib, uzoq muddatli kreditlash operatsiyasiga qaraganda lizing operatsiyalari hisobi nisbatan soddaligi tufayli mablag' tejashi mumkin. Shu bilan birga jahon tajribasi ko'rsatadiki, lizing operatsiyalari risk darajasi etarlicha bo'lgan bank operatsiyalari qatoriga kiradi.

Lizing operatsiyalarini amalga oshirish sxemalari:

1. An'anaviy moliyaviy lizing operatsiyasini amalga oshirish sxemasi.
2. Qarzga olingan mablag' hisobiga lizing operatsiyasini amalga oshirish sxemasi.
3. Qo'shimcha lizing (sublizing)ni amalga oshirish sxemasi.
4. Qaytariladigan lizingni amalga oshirish sxemasi.
5. Banklar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan lizing operatsiyasining sxemasi.
6. Tijorat banklarining krediti hisobiga lizing operatsiyasini amalga oshirish sxemasi.

7. Alohida (sindikatlashgan) lizing operatsiyasining sxemasi.

8. Kompaniya bilan tijorat banklari o'rtasida hamkorlikda faoliyat yuritish sxemasi.

Lizing operatsiyasining bosqichlari:

1. Lizing loyihasi bo'yicha lizing oluvchi bilan dastlabki muhokama.

2. Lizing oluvchi tomonidan buyurtma va loyiha bo'yicha barcha zarur bo'lgan hujjatlarni kompaniya mutaxassislariga taqdim etilishi (lizing kompaniyasiga topshiriladigan barcha xujjatlar topshirilgan vaqtda haqiqiy bo'lishi va lizing oluvchini moliyaviy va huquqiy holatini aniq ko'rsatishi lozim).

3. Lizing oluvchi tomonidan taqdim etilgan biznes-reja, buxgalterlik hisobotlari va boshqa xujjatlarni iqtisodiy tahlil qilish

4. Ta'sis hujjatlarining yuridik ekspertizasi.

5. Lizing loyihasini moliyalashtirishni maqsadga yo'naltirilganligi to'g'risidagi xulosa hisobotini rahbariyat uchun tayyorlash va taqdim etish.

6. Lizing loyihalarini moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilish.

- Lizing loyihasini moliyalash rad qilinganda, kompaniya lizing oluvchiga yakuniy qarorni ma'lum qiladi va loyiha hujjatlari to'plami bekor qilinadi;

- loyihani moliyalashtirish bo'yicha ijobiy qaror qabul qilinsa, lizing oluvchi bilan quyidagi hujjatlarni imzolash bo'yicha tadbirlar o'tkaziladi:

- asosiy shartlari foiz stavka hajmi, marja, muddat, qo'yilmalar miqdori, davriy to'lovlar va boshqalar bo'lgan lizing shartnomasi;

- lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasi;

- zarur hollarda lizing loyihalari bo'yicha kompaniyaning qaltisliklarini kamaytirish uchun hujjatlarni imzolash (kafillik shartnomasi, garov shartnomasi, kafolat va boshqalar).

- Kompaniya mutaxassislari lizing loyihasini to'liq va sifatli tahlil qilishlari uchun lizing oluvchi barcha kerakli hujjatlarni taqdim etganda lizing

operatsiyalarining 1-6 qismlarda ko'rsatilgan bosqichlari 30 kun muddatni talab qiladi.

7. Uskunani qabul qilish, joylashtirish, montaj va foydalanishga topshirish (3 kundan 90 kungacha).

8. Lizing loyihasi amal qilishi davomida kompaniya mutaxassislari tomonidan lizing oluvchining moliyaviy holatini tekshirish va monitoringini amalga oshirish.

9. Lizing oluvchi tomonidan lizing to'lovlarini to'lash va loyiha yakunida lizing ob'ektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchiga o'tishi.

Korxonalarni lizing asosida moliyalash uchun zarur bo'ladigan hujjatlar ro'yxati:

1. Buyurtmanoma.

2. Ta'sis hujjatlari (Nizom, ta'sis shartnomasi, ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma) ning nusxasi.

3. Faoliyat turi alohida ruxsatnomani talab qilsa, faoliyatni olib borish huquqini beruvchi guvohnoma.

4. Korxonaning oxirgi ikki yil uchun yillik va joriy yilning har choragi bo'yicha choraklik soliq inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan buxgalterlik hisoboti (barcha ilovalari bilan birga).

5. Asosiy vositalar to'g'risidagi yillik hisobot.

6. Bank tomonidan tasdiqlangan debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi hisobot (shakllanish sanasi ko'rsatilgan holda).

7. Soliq inspeksiyasidan byudjet bilan hisob-kitoblar to'g'risida va xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan qarzдорlik to'g'risida berilgan ma'lumotnomalar.

8. Lizing oluvchining uskuna o'rnatilishi mo'ljallanayotgan ishlab chiqarish binosidan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar (ijara shartnomasi, kadastr ma'lumotnomasi).

9. Xom ashyo va materiallarni etkazib berish bo'yicha kontraktlar (niyatlar bayoni).

10. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish bo'yicha kontraktlar (niyatlar bayoni).

11. Loyiha biznes-rejasi ( texnik-iqtisodiy asoslovchi hujjat ).

12. Rahbar va bosh hisobchining pasport va mehnat daftarchalarining nusxalari.

Xususiy tadbirkorlarni lizing asosida moliyalash uchun zarur bo'ladigan hujjatlar ro'yxati:

1. Buyurtmanoma.

2. Ro'yxatdan o'tganligi haqida guvohnoma nusxasi.

3. Individual mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ro'yxatga olingan guvohnoma nusxasi.

4. Davlat soliq inspeksiyasida ro'yxatga olinganligi va soliq to'lovchi individual raqami berilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi.

5. Ishlab chiqarish faoliyatini olib borish huquqini beruvchi guvohnoma, (faoliyat turi alohida ruhsatnomani talab qilgan taqdirda).

6. Soliq inspeksiyasidan byudjet bilan hisob-kitoblar to'g'risida va xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan qarzдорlik (2-sonli kartotekada turgan hujjatlar) to'g'risida berilgan ma'lumotnomalar.

7. Lizing oluvchi tomonidan uskunani o'rnatilishi mo'ljallanayotgan binodan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar (ijara shartnomasi, kadastr ma'lumotnomasi).

8. Xususiy tadbirkorga xizmat ko'rsatuvchi bankdan ohirgi uch oy mobaynida olib borilgan hisob-kitoblar haqida ma'lumot.

9. Uskunani(mulkni) etkazib beruvchi haqida ma'lumot.

10. Talab qilinayotgan uskunaning (mulkni) texnik tavsifi.

11. Xom ashyo va materiallarni etkazib berish bo'yicha kontraktlar (niyatlar bayoni).

12. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish bo'yicha kontraktlar (niyatlar bayoni).

13. Loyiha biznes-rejasi (texnik-iqtisodiy asoslovchi hujjat).

#### 14. Xususiy tadbirkorning pasporti va mehnat daftarchasidan nusxalar.

Ushbu hujjatlar ro'yxati lizing loyihasining maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning to'liq ro'yxati bo'lib hisoblanmaydi, zarur hollarda lizing kompaniyalari moliyalashtirilayotgan loyihaga daxldor boshqa ma'lumot va hujjatlarni rasmiy ravishda so'rashga haqlidirlar.

Lizing bo'yicha Xalqaro konventsianing amal qilishiga qaramasdan lizing tushunchasi dunyo mamlakatlarida turlicha talqin qilinmoqda. Masalan, Germaniyada lizing deganda, uzoq muddatli ijara tushuniladi va bunda lizingga oluvchi lizing ob'ektiga zarar etkazmasdan saqlashi uchun javobgar hisoblanadi hamda barcha soliqlar va sug'urta to'lovlarini to'laydi. AQShda esa, mashina – uskunalarni turli shartlarda foydalanish uchun berish lizing hisoblanadi. Frantsiyada qo'zg'almas mulk, ishlab chiqarish jarayonidagi qo'zg'aluvchan mulklar, ularni amortizatsiya davriga mos ravishda vaqtinchalik foydalanishga topshirish lizing, deb aytiladi<sup>15</sup>.

Ayrim iqtisodchi olimlar lizingni kreditning bir turi sifatida etirof etadilar. Masalan, I.Bernar va J.Kollining tarifiga ko'ra, lizing ko'char va ko'chmas mulklarni ijarachiga sotish imkoniyatini beradigan va uni ijaraga olish shartnomasini ko'zda tutadigan professional kreditning bir turidir<sup>16</sup>.

Iqtisodiy adabiyotda bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan lizingni bir vaqtning o'zida ham uzoq muddatli ijara sifatida, ham kreditlash shakli sifatida e'tirof etish hollari mavjud<sup>17</sup>.

Fikrimizcha, lizingni uzoq muddatli ijara va kreditlash shakli sifatida etirof etish maqsadga muvofiqdir. Chunki, lizingda aynan uzoq muddatli ijaraning xususiyatlari namoyon bo'ladi. Ya'ni, bahosi yuqori va uzoq muddat foydalaniladigan tovar vaqtinchalik foydalanish sharti bilan ijaraga beriladi. O'z

---

<sup>15</sup> Горемыкин В.А. Лизинг. Учебник. – М.: Информационно – издательский дом «Филинь», 2009. – С. 779-791.

<sup>16</sup> Бернар И., Колли Ж.-К. Толковый экономический и финансовый словарь. Французская, русская, английская, немецкая, испанская терминология: в 2-х тт. – Т.1: Пер. с фр. – М.: Международные отношения, 1994. – С. 507.

<sup>17</sup> Прилуцкий Л.Н. Лизинг. Правовые основы лизинговой деятельности в Российской Федерации. – М.: Изд-во «Ось», 1996. – С. 128; Банковское дело: Учебник. Под ред. проф. В.И.Колесникова, проф. Л.П. Кроливецкой. – М.: Финансы и статистика, 1995. – 480 с.

navbatida, bahosi yuqori bo'lgan tovarlar uzoq muddatga ijaraga beriladi. Mulkni vaqtinchalik tasarruf etuvchi uchun uni qisqa muddatga ijaraga olishdan ko'ra to'la qiymatda sotib olish afzal hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, lizing uzoq muddatli moliyaviy ijara shartlarini o'zida to'laroq ifoda etadi.

Biz lizingni kreditlash shakli sifatida ham e'tirof etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Buning sababi shundaki, lizing tijorat banklari tomonidan beriladigan muddatli kreditlash bilan o'zaro mos shartlarga ega. Ushbu umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan shartlar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Banklarning kreditlari aniq muddatlarga ega bo'ladi. Lizing banklarning uzoq muddatli kreditlariga mos keladi. Bank kreditlari muddati kredit shartnomasida belgilab qo'yiladigan bo'lsa, lizing kreditlarining muddati lizing shartnomalarida aniq belgilab qo'yilgan bo'ladi.

2. Lizing kreditlari ma'lum foiz stavkalarida beriladi. Banklarning kreditlari ham aniq foiz stavkalarida beriladi.

3. Tijorat banklari va lizing kompaniyalari tomonidan lizing ob'ektini vaqtinchalik tasarruf etish sharti asosida berilganda ularning ta'minoti masalasi yuzaga chiqadi. Odatda, lizing shartnomalari bo'yicha majburiyatlarning ta'minoti sifatida lizing ob'ektlarining o'zi olinadi.

4. Lizing kreditlarida dastlab foiz summasi qaytariladi, keyin esa, asosiy qarz summasi qaytariladi. Tijorat banklarining kreditlarida ham dastlab hisoblangan foiz qaytariladi. Muddati o'tgan va foiz hisoblamaslik maqomi qo'llanilayotgan lizing va muddatli kreditlarda dastlab asosiy qarz summasi qaytariladi.

O'zbekistonda amaliyotda ko'proq moliyaviy lizing joriy qilingan. Lizing kompaniyalariga foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilash yoki ularni shakllanish davrida soliqdan ozod qilish lizingni keng rivojlantirish jaroyaniga ko'maklashgan bo'lur edi.

Lizing kompaniyalarining foydasiga solingan soliq shuningdek, lizing kreditlarini qaytarish bo'yicha ajratmalarga va foiz to'lovlarga QQS lizing

oluvchilar uchun lizing qiymatini bankning uzoq muddatli kreditiga nisbatan oshirib yuborar edi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, lizingni doimiy ravishda takomillashtirib borilishi mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish texnik yangilash va diversifikatsiya qilish innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishda lizing munosabatlari rolini oshirishga xizmat qiladi. Biz lizing kompaniyalarini qancha ko'paytirsak shuncha iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi.

## **II BOB. RESPUBLIKAMIZDA MOLIIYaVIY LIZING OPERATsIYaLARINING AMALGA OShIRISH TARTIBI VA TAHLILI**

### **2.1. Moliyaviy lizing operatsiyalari va uning amaliy holati tahlili**

Bugungi kunda iqtisodiyot ravnaqini lizing tizimisiz tasavvur etish qiyin. Zotan, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ko'llab-quvvatlash, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda mazkur zamonaviy tarmoqning ahamiyati beqiyos.

Hozirgi kunga kelib, amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu soxaning taraqqiy etishiga zamin yaratdi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyot tarmoqlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda ko'l kelmokda. Xususan, yurtimiz yalpi ichki mahsulotida lizing operatsiyalari ulushi yil sayin o'sib borayotgani hamda shu faoliyat bilan shug'ullanadigan moliya muassasalari, kompaniyalar va nobank kredit muassasalari ko'payotgani e'tiborlidir.

Lizing kompaniyalarining faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, lizingga berilayotgan mol-mulkning asosiy qismini texnologik uskunalar, qishloq xo'jaligi texnikasi, yuk va yo'lovchi tashish avtotransporti hamda ko'chmas mulk tashkil etmoqda. Lizing beruvchilar orasida "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" ALK, "O'zavtosanoatlizing" AJ LK, "O'zmeliomashlizing" DLK, "O'zbek Lizing Interneyshnl A.O." AJ QK moliya bozorida ham, lizingga berilgan mol-mulk hajmi va mablag'i bo'yicha ham peshqadamlik qilmoqda. Mazkur holat uch yildan beri o'zgarmay kelayotgani, avvalambor, lizing bozori davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganidan dalolat beradi.

Shunday kompaniyalardan biri "O'zbek Lizing Interneshenl A.O." kompaniyasi faoliyatini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida birinchi lizing kompaniyasini tuzish g'oyasi Mustaqillikning ilk davrida paydo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yildagi 6-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston

Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy Banki, Malayziyaning “Maybank”, Evropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki hamda Xalqaro Moliyaviy Korporatsiya ishtirokida “O’zbek Lizing Interneshenl A.O.” qo’shma korxonasi tashkil etildi. Ushbu Kompaniyaning asosiy maqsadi ustuvor va muhim loyihalarni amalga oshirishda o’z mijozlariga yordam berish, biznes yuritishning yangi standartlarini amaliyotga joriy etish orqali O’zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli xissa qo’shishdan iborat.

Kompaniya mijozlarining biznesini modernizatsiyalash, kengaytirish va yangilash uchun investitsiyalar kiritadi.

Lizing bitimi bosqichlari 6 bosqichdan iborat bo’lib, har bir bosqichning aniq rejalari va qilinadigan ishlari mavjud.

Birinchi bosqich konsalting jarayoni bo’lib, bunda “O’zbek Lizing Interneshenl A.O.” kompaniyasi ish faoliyatining o’ziga xos tomoni shundaki, unga muammolariga echim topish maqsadida murojat etgan mijozlar uchun xizmatning o’rnatilgan standartlari ichida har bir mijoz uchun individual yondoshishdir. Lizing loyihasi menedjerlarning asosiy vazifasi shundan iboratki, lizing loyihasini har tomonlama o’rganib chiqib endilikda amalga oshiriladigan lizing loyihasi ekspertizasi uchun ushbu mijozga eng foydali hamkorlik sxemasini tuzib berish.

Ikkinchi bosqichda lizing loyihasining ekspertizasi amalga oshiriladi.

Lizing loyihasi uchun mijozdan kerakli ma’lumot va hujjatlar olinganidan so’ng, loyiha menedjeri uni ekspertiza qilishga kirishadi. Lizingning turi va uskuna narxiga qarab loyihani ko’rib chiqishga 15 kundan 30 kungacha vaqt ketadi. Bu vaqt ichida kompaniya mutaxasislari tomonidan lizing loyihasining huquqiy aspektlari va moliyaviy taxlili, iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiqligi tahlil qilinadi.

Lizing loyihasi bo’yicha yakuniy qaror «O’zbek Lizing Interneshenl A.O.» kompaniyasining Kredit Qo’mitasida qabul qilinadi. Ijobiy qaror qabul qilinishi bilanoq mijoz xat orqali xabardor qilinib, lizing loyihasini amalga oshirish bo’yicha hujjatlarni tayyorlash jarayoni boshlanadi.

Shundan so'ng uchinchi bosqich, ya'ni hujjatlarni tayyorlash bosqichi boshlanadi

«O'zbek Lizing Interneshenl A.O.» lizing kelishuvi huquqiy nuqtai nazardan ikki shartnoma asosida bitiladi:

- «O'zbek Lizing Interneshenl A.O.» kompaniyasi, Mijoz va lizing ob'ekti ishlab chiqaruvchi/sotuvchisi o'rtasidagi uskunani etkazib berish xaqidagi uch tomonlama shartnoma.

- «O'zbek Lizing Interneshenl A.O.» va Mijoz o'rtasidagi lizing shartnomasi.

Birinchi kelishuv bo'yicha moliyalashtirishning boshlanishi, mijozning avans to'lovini to'laganidan keyin amalga oshiriladi.

To'rtinchi bosqich uskunani etkazib berish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Uskunani etkazib berish, uni vaqtlari va shu bilan bog'liq barcha masalalarni nazorat qilish, kompaniya va mijoz bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Bunday yondashuv ushbu bosqichda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha muammolarni oson va unumli xal qilishga imkon beradi. Uskuna ishlab chiqaruvchi/sotuvchi oldi-sotdi shartomasida ko'rsatilgan shartlarni bajarganidan so'ng, uskuna lizing shartnomasida ko'rsatilgan vaqtga mijozga foydalanishga topshiriladi.

Beshinchi bosqich monitoring jarayoni bo'lib, bunda uskuna mijozga topshirilganidan so'ng uni «O'zbek Lizing Interneshenl A.O.» tomonidan lizing ob'ektini ekspluatatsiya qilish jarayonini monitoringi mavjud.

Oltinchi bosqich mulkning egasiga o'tishi bilan bog'liq jarayonlardir.

Lizing loyihasi bo'yicha xamma to'lovlarni va lizing ob'ektining sotish narxi qilib oylik lizing to'lovining 10% to'langanidan so'ng lizing ob'ektining mulk huquqi «O'zbek Lizing Interneshenl A.O.» tomonidan mijoz qo'liga o'tadi.

**5-jadval.**

**“O‘zbek Lizing Interneshenl A.O.” kompaniyasi milliy valyutadagi  
lizing shartlari<sup>18</sup>**

| <b>So‘mda lizing</b>                           |                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Moliyalashtirish miqdori                       | \$10,000 - \$300,000 (ekvivalent so‘mda)                                                                                                                                                                                                                                              |
| Lizing muddati                                 | 1 yildan kam 5 yildan ko‘p bo‘lmagan                                                                                                                                                                                                                                                  |
| To‘lovlar                                      | Milliy valyutada                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <b>Milliy valyutada lizingning xarajatlari</b> |                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| Komissiya to‘lovi                              | Loyixani ko‘rilishi uchun uskuna narxidan 1%                                                                                                                                                                                                                                          |
| Avans to‘lovi                                  | 3 oylik lizing to‘lovlari                                                                                                                                                                                                                                                             |
| Oraliq to‘lovlar                               | Uskuna uchun to‘lov amalga oshirilgan kundan uskunani ishga tushirish dalolatnomasi imzolangan kungacha bo‘lgan oraliqqa hisoblangan to‘lov                                                                                                                                           |
| Sug‘urtalash                                   | Uskuna va kafolat ob‘ekti (masalan Lizingoluvchi/Mijozning bino/inshootlari) sug‘urta kompaniyasi tomonidan butun lizing muddatiga sug‘urtalanadi.<br>Sug‘urta kompaniyasining shartlari va uskuna narxidan kelib chiqqan xolda sug‘urta to‘lovi 0,2% dan 1,5% gacha bo‘lishi mumkin. |
| Sertifikatlash                                 | "UZBEKEKSPERTIZA" kompaniyasining sertifikatlash tartibi bilan bog‘liq xarajatlar                                                                                                                                                                                                     |

Lizing mulkini etkazib berish “O‘zbek Lizing Interneshenl A.O.” kompaniyasi, uskunani ishlab chiqaruvchi/sotuvchi va mijoz o‘rtasidagi uch tomonlama kelishuv asosida amalga oshiriladi. Ob‘ektning respublika xududiga kelib tushgunigacha bo‘lgan muddat mobaynida lizing beruvchi shartnomani kuchga kirishi bilan bog‘liq hamma bosqichlardan o‘tadi: shartnoma vakolatli bank va bojxona xizmati organi tomonidan ro‘yxatdan utkaziladi.

**6-jadval.**

**“O‘zbek Lizing Interneshenl A.O.” kompaniyasi xorijiy valyutadagi  
lizing shartlari<sup>19</sup>**

| <b>Xorijiy valyutada lizing</b> |                                                                         |
|---------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|
| Moliyalashtirish miqdori        | \$10,000 - \$300,000                                                    |
| Lizing muddati                  | 1 yildan kam 5 yildan ko‘p bulmagan                                     |
| To‘lovlar                       | Milliy valyutada to‘lov kuniga birjadan tashqari xorijiy valyuta bozori |

<sup>18</sup> “Ўзбек Лизинг Интернэшнл А.О.” компанияси маълумотлари

<sup>19</sup> “Ўзбек Лизинг Интернэшнл А.О.” компанияси маълумотлари

|                                 |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|---------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                 | qiymatida<br><b>Xorijiy valyutada lizingning xarajatlari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| Komissiya to'lovi               | Loyixani ko'rilishi uchun uskuna narxidan 1% (so'mda to'lov kuniga birjadan tashqari valyuta bozori kursida)                                                                                                                                                                                                                                      |
| Avans to'lovi                   | 3 oylik lizing to'lovlari (so'mda to'lov kuniga birjadan tashqari valyuta bozori kursida)                                                                                                                                                                                                                                                         |
| Akkreditiv ochilishi            | Uskuna narxidan 1% (so'mda to'lov kuniga birjadan tashqari valyuta bozori kursida)                                                                                                                                                                                                                                                                |
| Oraliq to'lovlar                | Akkreditiv ochilish kunidan boshlab yoki 15% li oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan uskunani ishga tushirish dalolatnomasi imzolangan kungacha bo'lgan oraliqga hisoblangan to'lov                                                                                                                                                           |
| Sug'urtalash                    | Import qilingan uskuna va kafolat ob'ekti (masalan Lizingoluvchi/Mijozning bino/inshootlari) sug'urta kompaniyasi tomonidan butun lizing muddatiga sug'urtalanadi.<br>Sug'urta kompaniyasining shartlari va uskuna narxidan kelib chiqqan xolda sug'urta to'lovi 0,2% dan 1,5% gacha (so'mda to'lov kuniga Markaziy bank kursida) bo'lishi mumkin |
| Sertifikatlash                  | "UZBEKEKSPERTIZA" kompaniyasining sertifikatlash tartibi bilan bog'liq xarajatlar                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| Bojxona bilan bog'liq to'lovlar | Bojxona protseduralari – uskuna narxidan 0,2%<br>Bojxona deklaratsiyasi – uskuna narxidan 0,7%<br>(so'mda to'lov kuniga birjadan tashqari valyuta bozori kursida)                                                                                                                                                                                 |

Lizing ob'ekti sifatida olib ketiladigan tovarlarga bojxona to'lovlarini hisoblash belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Lizing ob'ektini olib ketish chog'ida bojxona to'lovlarini to'lash uning bojxona qiymatining to'langan qismi miqdoridan kelib chiqqan holda amalga oshirilib (lizing to'lovlari), bank hujjatlari bilan tasdiqlanadi. Keyinchalik bojxona to'lovlari lizing to'lovlari kelib tushishiga ko'ra 20 kun mobaynida to'lanadi.

Vaqtincha olib ketilgan lizing tovari qaytarib olib kelinganda u import tovar hisoblanmaydi va undan bojxona poshlinalari hamda yig'implar olinmaydi.

Moliyaviy lizingda, lizing ob'ekti lizing oluvchi mulkiga o'tgandan keyin, lizing ob'ekti "eksport" bojxona rejimi ostiga olinadi. Bunda ilgari to'langan bojxona to'lovlar eksport eilishda to'lanadigan bojxona to'lovlar summasiga hisoblanadi.

Lizing ob'ektini bojxonada rasmiylashtirish jarayonini yanada engillashtirish maqsadida lizing oluvchi bir vaqtning o'zida yuk oluvchi etib tayinlanadi. Bu lizing oluvchiga lizing ob'ekti uchun bo'lgan bojxona to'lovlari va sertifikatliya savollari bo'yicha xam huquq beradi. Lizing beruvchi lizing ob'ektini etkazib berish uchun to'lovchi xam bo'lgani uchun, bojxona sharti bo'yicha lizing beruvchi tomonidan lizing oluvchi vakiliga ishonchnoma berilishi lozim. Kompaniya bojxona xizmatidan lizing ob'ektini qiyinchiliksiz o'tkazishi uchun butun Respublika bo'ylab filliallariga ega bo'lgan va o'zini ishda ko'rsata olgan yuqori malakali broker kompaniyalari bilan xamkorlik yuritadi.

Hozirgi paytda deyarli barcha tijorat banklari lizing mahsulotlarining keng turlarini (imkoniyatini) taklif etmoqda. Ularning yordamida mijozlar o'zlariga qulay bo'lgan shartlar asosida ko'chmas mulk, dastgohli, poligrafik va savdo asbob-uskunalarini, ishlab chiqarish liniyalarini, oziq-ovqat va sanoatning boshqa sohalari uchun asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va avtotransport sotib olish imoniyatiga ega bo'lmoqda. Bir so'z bilan aytganda, tijorat banklari lizing bozorida ishonchli hamkor va barqaror faoliyat garovidir.

## 7- jadval


### ATB “Qishloq qurilish banki” tomonidan lizing xizmati ko’rsatishning asosiy shartlari<sup>20</sup>

| Talablar                                                                                                                                  | Shartnoma shartlari                     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------|
| Lizingga berilgan asosiy vosita turlari                                                                                                   | Chegaralanmagan                         |
| Lizing oluvchiga qo’yiladigan talablar (mulkchilik shakli, korxona ish xajmi va x.k.z)                                                    | Chegaralanmagan                         |
| Lizing muddati:<br>-Minimum:<br>-Maksimum:                                                                                                | Minimum 2.5 yil<br>Maksimum 10 yil      |
| Lizing shartnomasi miqdori (lizing ob’ekti qiymati):                                                                                      | Chegaralanmagan                         |
| Loyixada mijozning o’z mablag’lari ishtirokiga bo’lgan talablar                                                                           | -                                       |
| Lizing ob’ekti qiymatidan oldindan to’lov miqdori,foizda:                                                                                 | minimum 20%                             |
| Lizing oluvchi tomonidan taqdim qilinadigan qo’shimcha ta’minot,lizing ob’ekti qiymatidan foizda                                          | 120%                                    |
| Foiz stavkasi, yillik:                                                                                                                    | Shartnomaga asosan kelishiladi          |
| Lizing to’lovlarini amalga oshirish muddati                                                                                               | Lizing shartnomasiga asosan kelishiladi |
| Komission to’lovlar( lizing ob’ekti olib kelish, o’rnatish,ishga tushirish va boshqa xarajatlar uchun.), foizda%lizing obe’kti qiymatidan | -                                       |
| Boshqa shartlar                                                                                                                           | -                                       |

ATB “Qishloq qurilish banki” tomonidan lizing xizmatlari maksimal 10 yil muddatga berilib, bunda ta’minot lizing qiymatining 120%ni tashkil etishi lozim. Bunda oldindan to’lov 20% ni tashkil etishi belgilab qo’yilgan.

Lizing xizmati bozori taraqqiyoti dinamik sur’atda tahlil qilinar ekan, asosiy vositalar turi bo’yicha bitimlar diversifikatsiya holati yuzaga kelayotganini qayd etish mumkin. 2013-yildan boshlab, qishloq xo’jaligi texnikasi ulushi kamayib, texnologik uskunalar ulushi o’sayotgani ma’lum bo’ladi.

<sup>20</sup> Тижорат банки кредит ва лизинг сиёсати маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди




**4-rasm. Asosiy vositalari turlari bo'yicha lizing bitimlari taqsimoti<sup>21</sup>.(2015 yil 1 yanvar holatiga)**

2014-yilning yakuniy natijalariga ko'ra, lizingga berilgan mulkning tarkibiy qismi o'rganilganida, narxi bo'yicha yuqori o'rinlarni egallab kelayotgan lizing obe'kti qishloq xo'jaligi texnikasi ulushiga to'g'ri keladi, Lizingga berilgan qishloq xo'jaligi texnikasi umumiy qiymati 280 mlrd.so'mdan ortiqni tashkil etdi(bozordagi ulushi-34,2 %). 2013-yilga nisbatan qishloq xo'jaligi texnikasi ulushi 2,8 % ga qisqardi. Bu esa 2014-yil II yarim yilligida TTZ dan qishloq xo'jaligi texnikasining etkazib berilishi bilan bog'liq vaziyatlar tufayli yuzaga keldi.

Texnologik uskunalarining ulushi biroz o'sdi va 27,7 % ni tashkil qildi, 2013-yil bilan solishtirganda (22,4 %). Texnologik uskunalarni lizingga taqdim etishda etakchilikni qo'lga kiritayotgan lizing kompaniyalari orasida "O'zbek Lizing Interneshnl A.O." AJQK (60 mlrd.so'm), "O'zmeliomashlizing" DLK (25,4mlrd.so'm), va "Ipoteka-bank" ATIB (13,5mlrd.so'm)lar bor.


<sup>21</sup> ula.uz сайти маълумотлари.



**5-rasm. Lizing bitimlarining mintaqalar bo'yicha taqsimoti<sup>22</sup>. (2015 yil 1 yanvar holatiga)**

Respublikada lizing operatsiyalarining hududlar kesimidagi holati bir maromdadir. Avvalgi yillardagidek, bitim eng ko'p, aniqrog'i, amaldagi lizing operatsiyalarining  $\frac{1}{4}$  qismi tuzilgan hududlar sirasiga Toshkent shahri va Toshkent viloyati kirmoqda (11,13 %). Shuningdek, 2014-yil yakunlariga ko'ra, lizing bozori Sirdaryo viloyatida ham faollashgan. Natijada Sirdaryo viloyati kuchli uchlikdan o'rin egalladi (7,26 %).

<sup>22</sup> ula.uz сайти маълумотлари.



**6-rasm. Lizing bitimlari portfeli dinamikasi<sup>23</sup> (mlrd.so'mda, yil oxiriga)**


Lizing shartnomasi portfelining jami qiymati 2013-yilga nisbatan 29.3%ga o'sdi va 2trln.139 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2001-2014 yillar davomida Respublika qishloq xo'jalik korxonalariga jami 1219,8 mlrd.so'mlik 51074 dona shu jumladan, 740 dona g'alla o'rish kombaynlari, 20620 dona TTZ (MTZ), 1778 dona MX, MXM (TL-100, TS-135), TT-40, T-7060 va 1115 dona Axos-340, Axion-850 va Arion-630C rusumli traktorlar, hamda 26719 dona turli rusumdagi qishloq xo'jalik texnikalari lizing asosida etkazib berildi.

Shu jumladan, 2014 yilda Respublika qishloq xo'jalik korxonalariga jami qiymati 208,2 mlrd.so'mlik 3225 dona shu jumladan, 792 dona TTZ, 150 dona TS-135 va TL-100, 30 dona T-7060, 17 dona TT-40 va 232 dona Arion-630C rusumli xaydov traktorlari, 101 dona yangi turdagi LS PLUS-100 va LS-1004 traktorlar, 93 dona Dominator-130 rusumli g'alla o'rish kombaynlari va 1 dona Jaguar-850 rusumli ozuqa o'rish kombayni hamda 1809 dona turli rusumdagi qishloq xo'jalik texnikalari lizing asosida etkazib berildi.

<sup>23</sup> ula.uz сайти маълумотлари.

2014 yilda yangilik sifatida qishloq xo'jaligi 6 turdagi yuqori unumli zamonaviy texnikalar bilan, ya'ni LS PLUS-100 va LS-1004, TT-40 rusumli traktorlar, "MC 90 S Twin" rusumli makka o'rgich, VP-1 BM rusumli bog'ga ishlov berish mashinasi va MTT-4U, PRT-4A rusumli mineral o'g'it sepgilar bilan ko'paytirildi. Lizingga berilayotgan texnikalar turi 47 taga etdi.



**7-rasm. Lizingga berilgan buyumlar xajmi dinamikasi<sup>24</sup> (mlrd.so'mda, yil oxiriga)**

Yil yakuniga ko'ra, avvalgi yilning shu davriga nisbatan yangi lizing operatsiyalari hajmi o'sish sur'ati 2.5 barobarga to'g'ri keldi. Ya'ni 2013-yilda lizing hajmi 805,2 mlrd so'mga teng bo'lsa, 2014-yilda ushbu ko'rsatkich 21mlrd.so'mga ortgan va 826.2 mlrd. so'mga etgan.

## **2.2. Tijorat banklarida moliyaviy lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va tahlili**

Banklar fakat lizing shartnomasi muddati tugaganidan keyin lizing ob'ekti lizing oluvchining mulkiga o'tishini ko'zda tutuvchi lizing operatsiyalarini amalga oshiradi. Bunda lizing oluvchi lizing beruvchi bankka lizing ob'ektini

<sup>24</sup> ula.uz сайти маълумотлари.

sotib olish, uni etkazib berish, ishga tayyor xolga keltirish bilan boglik barcha xarajatlarini va kelishilgan foizlar to'lovini amalga oshirishi kerak bo'ladi. Lizing beruvchi bank lizing ob'ektini sotuvchidan kelgusida uning o'ziga lizing asosida foydalanish uchun berish maksadida sotib olgan takdirda bir shaxsning o'zi xam lizing oluvchi, xam sotuvchi bo'lishiga yo'l ko'yiladi. Lizing operatsiyalari moliyaviy barkaror bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga to'lovlilik, ta'minlanganlik, bank tomonidan lizing ob'ektini sotib olishga investitsiya kilingan kredit mablaglarini qaytarishlik va maksadga muvofik foydalanishlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Lizing operatsiyasi lizing ob'ekti lizing oluvchi tomonidan bevosita tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maksadida ishlatilishi ko'zda tutilgan xollarda ko'rsatiladi. Kimorxonalar va billiardxonalarni tashkil etishda lizing ob'ektini ko'llash ko'zda tutilgan xollarda lizing xizmatlarini ko'rsatishga yo'l ko'yilmaydi. Lizing bo'yicha moliyaviy ijaraga olingan mol-mulkning tasodifan nobud bo'lishi, yo'kolishi, o'girlanishi, shikastlanishi, buzilishi va barvakt eskirishi xavfi bilan boglik bo'lgan tarzdagi xar kanday etkazilishi mumkin bo'lgan zarardan lizing ob'ektini sug'urtalash taraflarning kelishuviga binoan sug'urtalanadi. Bunday kelishuv bo'lmagan takdirda, lizing oluvchi lizing ob'ekti sug'urtasi uchun javobgar bo'ladi. Lizing beruvchi va lizing oluvchi o'zaro kelishgan xolda qonun xujjatlariga muvofik lizing ob'ektini jadal amortizatsiya kilishni ko'llash xuquqiga ega.

Lizing oluvchi lizing shartnomasini tuzish uchun uning asosiy depozit hisobvaragiga xizmat ko'rsatayotgan bankka quyidagi xujjatlarni takdim etadi:

- lizing buyurtmasi;
- lizing ob'ektining texnik-iktisodiy ko'rsatkichlari va uning sotuvchisi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- lizingning butun davrini ichiga olgan pul okimi taxlili ko'rsatilgan biznes-reja;
- oxirgi hisobot sanasiga tuman (shaxar) davlat solik inspeksiyasi tomonidan kabul kilingan buxgalterlik balansi (1-shakl), moliyaviy natijalari

xakida hisobot (2-shakl), muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik karzdorlik xakidagi ma'lumotnoma (2a-shakl), 90 kundan ortiq muddatdagi karzdorlikni solishtirish dalolatnomalari.

Lizing beruvchi banklar lizing berish yuzasidan karor kabul kilish uchun lizing oluvchidan uning lizing to'lovlarini amalga oshirish imkoniyatlarini baxolash uchun zarur bo'lgan xujjatlarni so'rab olishlari mumkin. Lizing kompaniyalariga ularga ikkilamchi talab kilib olinguncha depozit hisobvaraklari ochgan tijorat banklari tomonidan import asosida lizing ob'ektlarini etkazib berish bilan boglik lizing xizmati ko'rsatilishi mumkin. Buyurtma lizing beruvchi bank tomonidan ko'rib chikilayotganda quyidagilarning taxlili amalga oshiriladi:

- buyurtma beruvchi daromadlarining lizing to'lovlarini amalga oshirish uchun etarliligi;
- buyurtmada bayon etilgan ma'lumotlarning bir-biriga zid emasligi;
- lizing beruvchi bank oldidagi majburiyatlarni buyurtma beruvchi tomonidan o'z vaktida bajarish imkoniyatining mavjudligi.

Lizing ob'ekti shartnomaga muvofik lizing beruvchi bank tomonidan lizing ob'ektini sotib olishga, lizing ob'ektini etkazib berish va belgilangan maksadda foydalanish uchun uni yarakli xolga keltirish bilan boglik va boshka xarajatlarini qaytarish xamda lizing daromadi (foizi) to'lovini amalga oshirish ta'minoti vazifasini bajaradi. Bunda lizing ob'ekti lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchi bank foydasiga yo'kolish va shikastlanish xodisalaridan ixtiyoriy sug'urta kilinishi va bu to'g'risida sug'urta polisini bankka takdim etilishi asasiy shart hisoblanadi. Lizing beruvchi lizing operatsiyasini amalga oshirish natijasida sarflangan mablaglarning qaytarilishi va lizing foizi to'lanishining kafolati sifatida lizing oluvchidan boshka ta'minot shakllarini takdim etishni talab kilishi mumkin. Lizing foiz stavkalari mikdori lizing oluvchi va lizing beruvchi bank o'rtasidagi o'zaro kelishuvga ko'ra lizing shartnomasida belgilanadi.

Lizing oluvchining buyurtmasi bo'yicha lizing beruvchi bank tomonidan lizing operatsiyasini amalga oshirish yoki oshirmaslik to'g'risida karor kabul qilish muddati buyurtma bankka kelib tushgan kundan boshlab 30 ish kunidan, mikrolizing operatsiyasini amalga oshirish bo'yicha esa 10 ish kunidan oshmasligi lozim. Lizing operatsiyasini amalga oshirish asoslantirilgan xolda rad etilgan takdirda, lizing beruvchi bank lizing oluvchiga bu xakda rad etish sababini asoslagan xolda yozma shaklda ma'lum qilishi shart.

Lizing operatsiyasini amalga oshirish to'g'risida karor kabul kilingan takdirda, bu xakda lizing oluvchiga bildiriladi xamda lizing beruvchi bank va lizing oluvchi o'rtasida qonun xujjatlarida belgilangan tartibda lizing shartnomasi tuziladi. Lizing ob'ekti hisoblangan mol-mulk bo'yicha tuziladigan bitimlar qonunga muvofik notarial tasdiklanishi talab kilinadigan xollarda lizing shartnomasi notarial tasdiklanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonuniga muvofik, lizing shartnomasi quyidagi shartlardan biriga javob berishi kerak:

a) lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing ob'ekti lizing oluvchining mulki bo'lib o'tsa;

b) lizing shartnomasining muddati lizing ob'ekti xizmat muddatining 80 foizidan ortiq bo'lsa yoki lizing ob'ektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi koldik kiymati uning boshlangich kiymatining 20 foizidan kam bo'lsa;

v) lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing ob'ektini uning bozor kiymatidan past narxda sotib olish xuquqiga ega bo'lsa, bunda ana shu xuquqni amalga oshirish kunidagi lizing ob'ekti kiymati asos bo'ladi;

g) lizing shartnomasi amal kiladigan davr uchun lizing to'lovlarining umumiy summasi lizing ob'ekti kiymatining 90 foizidan ortiq bo'lsa.

Lizing shartnomasi lizing ob'ekti xizmat muddatining 80 foizidan kam bo'lmagan muddatga tuziladi. Fermer xo'jaliklariga xamda Korakalpogiston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi mashina-traktor parklariga kishlok xo'jaligi mashinalarini lizingga berish borasidagi lizing shartnomalari 10 yilgacha bo'lgan muddatga tuziladi. Lizing shartnomasida lizing shartnomasi

amal qilishi boshlangandan to tugagunga kadar lizing ob'ektiining qiymati bo'yicha vujudga keladigan o'zgarishlarni inobatga olib, lizing to'lovlari summasiga taraflarning kelishuviga binoan tegishli ko'shimcha va o'zgartirishlar kiritish shartlari ko'zda tutilishi mumkin.

Lizing oluvchilar lizing ob'ektiini lizing shartnomasi muddati tugashidan oldin istalgan vaktida lizing ob'ektiining koldik qiymatini va hisoblangan lizing foizi to'lovini amalga oshirgan xolda lizing ob'ektiini o'z mulkiga olishi mumkin. Lizing ob'ekti koldik qiymati va hisoblangan foizlar to'lovi to'laligicha amalga oshirilgan kundan boshlab lizing shartnomasi shartlari to'la bajarilgan hisoblanadi. Lizing shartnomasi tuzilganidan so'ng lizing beruvchi bank va sotuvchi o'rtasida lizing ob'ektiining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi. Bunda lizing beruvchi bank sotuvchiga mol-mulk muayyan lizing oluvchiga berish uchun sotib olinayotganligini bildirishi shart. Lizing ob'ektiini foydalanishga kabul qilish dalolatnomasi imzolanib, mulkka egalik qilish va undan foydalanish xuquqi lizing oluvchiga o'tganidan so'ng lizing operatsiyasi amalga oshirilgan hisoblanadi. Lizing shartnomasida boshkacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing ob'ekti sotuvchi tomonidan bevosita lizing oluvchiga u turgan joyda topshiriladi. Foydalanishga kabul qilish dalolatnomasi lizing oluvchi tomonidan rasmiylashtiriladi va lizing beruvchi bank, lizing oluvchi xamda sotuvchi tomonidan imzolanadi. Lizing ob'ekti etkazib berilmagan, to'lik etkazib berilmagan, etkazib berish muddati o'tkazib yuborilgan yoki sifati talab darajasida bo'lmagan lizing ob'ekti etkazib berilgan takdirda, agar shartnomada boshkacha koida nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing oluvchi:

- lizing to'lovini amalga oshirishni kechiktirish;
- etkazib beriladigan lizing ob'ektidan voz kechish;
- lizing shartnomasining bekor kilinishini lizing beruvchidan talab etish;
- lizing shartnomasini bajarmaslik yoki tegishlicha bajarmaslik natijasida etkazilgan zararlarni to'lashni lizing beruvchidan talab qilishga xaklidir.

Lizing beruvchi bank xar bir lizing operatsiyasi bo'yicha lizing yigma jildini shakllantiradi.

Lizing yigma jildda quyidagi xujjatlardan iborat bo'ladi:

- lizing oluvchining buyurtmasi;
- lizing shartnomasi;
- lizing oluvchining oxirgi hisobot sanasiga buxgalteriya balansi;
- lizing oluvchining lizing bo'yicha biznes-rejasi;
- lizing oluvchining to'lov kobiliyati va uning biznes-rejasining samaradorligi to'g'risida lizing beruvchi bankning xulosasi;
- sug'urta kompaniyasining lizing ob'ektini sug'urta kilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi;
- lizing beruvchining lizing ob'ektini lizing oluvchiga etkazib berilishi to'g'risidagi buyurtmasi;
- lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasi;
- lizing ob'ektini foydalanishga kabul qilish dalolatnomasi;
- lizing ob'ektiga sotuvchi tomonidan berilgan texnik kafolat;
- lizing operatsiyasi xamda ta'minoti xarakteridan kelib chikkan xolda olingan boshka xujjatlar.

Lizing shartnomasi yuzasidan ko'shimcha kelishuv tuzilgan takdirda, u xam lizing oluvchining lizing yigma jildiga tikib ko'yiladi.

Lizing oluvchi lizing shartnomasida belgilangan muddat davomida lizing ob'ektiga egalik qilish va undan foydalanish xuquqini oladi. Lizing oluvchi tomonidan lizing shartnomasi bo'yicha o'zida paydo bo'lgan xuquq, majburiyat va boshka manfaatlarni uchinchi shaxsga o'tkazish (ko'shimcha lizing)ga fakat lizing beruvchining yozma roziligi asosida ruxsat etiladi. Lizing oluvchi sotuvchi tomonidan lizing ob'ektiga berilgan texnik kafolatdan foydalanadi.

Lizing oluvchi bank lizing bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni oshkor etadi:

- 1) hisobot sanasiga lizingga berilgan aktivlarning xar bir sinfi bo'yicha sof balans qiymati;
- 2) hisobot sanasiga jami kelgusi minimal lizing to'lovlari bilan ularning joriy diskont qiymati takkoslamosi;

3) quyidagi davrlarning xar biri bo'yicha hisobot sanasiga jami kelgusi minimal lizing to'lovlari bilan ularning joriy diskont qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar:

- a) bir yilgacha bo'lgan muddat;
- b) bir yildan ortiq, lekin besh yildan ortiq bo'lmagan muddat;
- v) besh yildan ortiq bo'lgan muddat;

4) lizing oluvchining muxim lizing shartnomalarining quyidagilarni o'z ichiga olgan, lekin bular bilan chegaralanmagan xolda umumiy tavsifi:

a) shartnomaga kiritilgan ko'shimcha va o'zgartirishlarning mavjudligi va shartnoma shartlarining o'zgartirilishi va yangi kiritilgan shartlarning xaridning kulayligiga ta'siri imkoniyatlari;

b) lizing shartnomasi shartlariga asosan ko'shimcha karzdorlik va kelgusi lizing bitimida o'rnatilgan cheklashlar.

Lizing beruvchi bank quyidagi ma'lumotlarni oshkor etadi:

1) hisobot sanasiga lizingga kilingan yalpi lizing investitsiyasi bilan hisobot sanasiga olinishi kerak bo'lgan bo'lgusi minimal lizing to'lovlarining joriy diskont qiymati bilan takkoslanmasi;

2) quyidagi davrlarning xar biri bo'yicha hisobot sanasiga lizingga kilingan yalpi lizing investitsiyasi va olinishi kerak bo'lgan kelgusi minimal lizing to'lovlarining joriy diskont qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar:

- bir yilgacha bo'lgan muddat;
- bir yildan ortiq, lekin besh yildan ortiq bo'lmagan muddat;
- besh yildan ortiq bo'lgan muddat;

3) olinmagan moliyaviy daromad;

4) olinishi lozim bo'lgan minimal lizing to'lovlari bo'yicha shakllangan umidsiz karzdorlik bo'yicha yigilgan zaxira;

5) lizing beruvchi bank tomonidan imzolangan muxim lizing shartnomalarining umumiy tavsifi;

6) davr mobaynida lizing shartnomalari bo'yicha tegishli mablaglarning yalpi investitsiyadan chegirgan xoldagi ma'lumotlar.

Tijorat banklari asosan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari lizing operatsiyalarini moliyalashtirgan va banklar faoliyatida etakchi soha sifatida alohida e'tiborga olingan.

Lizing operatsiyalari bank biznesida keng tadbqiq etila boshladi. Ular tijorat banklari uchun bir qator muxim afzalik keltiradi.

- mazkur bank tuzilishi aniq ta'minotga ega bo'ladi;
- lizing operatsiyalari va u bilan bog'liq xizmatlar muntazam kengayadi;
- lizing yordamida mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkoni tug'iladi va bu bilan mijozlar doirasi kengayadi;
- o'z ishlab chiqarish fondini yangilashga muhtoj mijozlar bilan sifat jihatdan yangicha sheriklik munosabatlari o'rnatiladi.

Bank uchun lizing operatsiyasining yana bir afzalligi shundan iboratki, uning samaradorligi etarli darajada yuqori bo'ladi. Bundan tashqari tijorat banki lizing operatsiyalarining hisobi nisbatan soddaligi uchun qo'yiladi. Lizing biznesini rivojlantirib, uzoq muddatli kreditlash operatsiyasiga qaraganda ko'proq mablag' tejashi mumkin.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda lizing kompaniyalari tijorat banklari kreditlaridan doimiy foydalanuvchi sub'ektlar hisoblanishadi. Ular kredit to'loviga layoqatli bo'lganligi sababli, bank kreditlaridan uzluksiz foydalanish imkoniyatiga egadirlar.

Ko'pchilik o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida tijorat banklari kreditlaridan lizing kompaniyalari faoliyatini moliyalashtirish manbai sifatida foydalanish amaliyoti takomillashib bormoqda.

Hozirgi paytda deyarli barcha tijorat banklari lizing mahsulotlarining keng turlarini (imkoniyatini) taklif etmoqda. Ularning yordamida mijozlar o'zlariga qulay bo'lgan shartlar asosida ko'chmas mulk, dastgohli, poligrafik va savdo asbob-uskunalarini, ishlab chiqarish liniyalarini, oziq-ovqat va sanoatning boshqa sohalari uchun asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va avtotransport sotib olish imoniyatiga ega bo'lmoqda. Bir so'z bilan aytganda, tijorat banklari lizing bozorida ishonchli hamkor va barqaror faoliyat garovidir.



**Asosiy sarmoyaga lizing orqali investitsiya kiritish<sup>25</sup>.**

| <b>Davr</b> | <b>Lizingga berilgan mulkning narxi, mlrd . so'mda</b> | <b>Asosiy sarmoyadagi investitsiyalar tarkibida lizingning ulushi, %da</b> | <b>Lizingning YaIM dagi ulushi, % da</b> | <b>Lizing portfelining YaIM dagi ulushi, % da</b> |
|-------------|--------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------|---------------------------------------------------|
| 2008y.      | 351,6                                                  | 4,2                                                                        | 1,0                                      | 2,2                                               |
| 2009y.      | 401,6                                                  | 3,2                                                                        | 0,8                                      | 2,3                                               |
| 2010y.      | 430,3                                                  | 2,7                                                                        | 0,7                                      | 1,8                                               |
| 2011y.      | 484,5                                                  | 2,7                                                                        | 0,6                                      | 1,6                                               |
| 2012y.      | 590,6                                                  | 2,7                                                                        | 0,6                                      | 1,3                                               |
| 2013y.      | 805,2                                                  | 2,8                                                                        | 0,7                                      | 1,3                                               |
| 2014y.      | 826,2                                                  | 2,5                                                                        | 0,6                                      | 1,5                                               |

2014 yilning yakuniy natijalariga muvofiq, asosiy sarmoyadagi investitsiyalar tarkibida lizinglar ulushi 2,5 foizni tashkil qildi. Lizingning YaIMdagi ulushi biroz kamayib, 2013 yilda ushbu ulush 0,7 foizdan iborat bo'lgan bo'lsa, 2014 yilda ushbu ko'rsatkich 0,6 foizga tushib qoldi. Biroq YaIMdagi lizing portfelining ulush ko'rsatkichi 2013 yilga nisbatan 0,2 foizga o'sdi va 1,5 foizni tashkil etdi.

Yil yakuniga ko'ra, avvalgi yilning shu davriga nisbatan yangi lizing operatsiyalari hajmi o'sish sur'ati 2,5 barobarga to'g'ri keldi. Ya'ni, 2013 yilda lizing hajmi 805,2 mlrd. so'mga teng bo'lsa, 2014 yilda ushbu ko'rsatkich 21 mlrd. so'mga ortgan va 826,2 mlrd. so'mga etgan.

<sup>25</sup> ula.uz сайти маълумотлари.

**Lizing bozori ishtirokchilari ulushi<sup>26</sup>**

|                                        | <b>2014 – yil</b>                                         |
|----------------------------------------|-----------------------------------------------------------|
| <b>Lizing kompaniyalari</b>            | <b>Lizing operatsiyalarining qiymati<br/>(mln.so'mda)</b> |
| Mol-mulk narxi, mlrd,so'mda            | 592,6                                                     |
| Ulushi, %da                            | 71,7                                                      |
| <b>Banklar</b>                         |                                                           |
| Mol-mulk narxi, mlrd,so'mda            | 233,6                                                     |
| Ulushi, %da                            | 28,3                                                      |
| <b>Jami, mulk bahosi, mlrd. so'mda</b> | <b>826,2</b>                                              |

2014-yilning yakuniy natijalariga muvofiq, lizing bozorining katta ulushi lizing kompaniyalariga to'g'ri kelib, 71.7% ga teng bo'ldi. Lizing kompaniyalari tomonidan tuzilgan bitimning umumiy miqdori 592,6 mlrd.so'mdan iborat. Yangi tashkil etilgan kompaniyalar soni 5 tani tashkil etdi hamda 2 nafar lizing beruvchilar O'zbekiston lizing beruvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadigan bo'ldi.

2015-yil boshiga kelib, lizing beruvchilar soni 88 tani (24 ta tijorat banklari va 64 ta lizing kompaniyalari) tashkil etmoqda.

Respublikamizda banklar bilan birga lizing kompaniyalari ham lizing bozorida faol ishtirok etib kelmoqda. Bu o'z navbatida lizing bozorida raqobat muhitini shakllanishiga va lizing xizmatlari sifati va soninin ortishiga, ular bo'yicha to'lanadigan foizlarning sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Natijada xo'jalik yurituvchi sube'ktlarning asosiy vositalarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish imkoniyati yuzaga keladi.

<sup>26</sup> ula.uz сайти маълумотлари.

**Banklarning TOP 5 ligi<sup>27</sup>**

| <b>T/r</b> | <b>Banklar nomi</b>       | <b>Lizing operatsiyalarining<br/>qiymati (mlrd.so'mda)</b> |
|------------|---------------------------|------------------------------------------------------------|
| 1.         | “Asaka” DATB              | 79,4                                                       |
| 2          | “Ipoteka-bank” ATIB       | 26,7                                                       |
| 3.         | Davlat tijorat Xalq banki | 22,3                                                       |
| 4          | ChEKI “Hamkorbank” ATB    | 16,4                                                       |
| 5          | “KDB Bank O'zbekiston” AJ | 14,7                                                       |

2014 yilda lizing xizmatlari bozorida faoliyat yuritgan banklardan 5 tasi jamiga nisbatan 68,2 foiz ulushni tashkil qilmoqda. Bunda faqatgina Asakabank boshqa banklarga nisbatan ustunlikka ega. Boshqa banklar o'rtasida esa teng kuchli raqobat mavjudligini ko'rish mumkin. Bu avvalo, banklarda lizing operatsiyalari bilan bog'liq operatsiyalarning yuqori darajada rivojlanmaganligini, banklarda lizing operatsiyalarini amalga oshirishda raqobat muhitining to'liq shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Umuman malaktimiz tijorat banklarining barchasida ham lizing munosabatlarini bir xilda rivojlangan deb bo'lmaydi. Bunga asosiy sabab, banklarda etarli darajada resurs bazaning etarli emasligi bilan bog'liq.

Demak, mamlakatimizda banklarning resurs salohiyatini oshirish borasida bir qator ishlarni amalga oshirish lozim. Ayniqsa, bank depozitlari tarkibida muddatli depozitlar salmog'ini oshirish, aholi omonatlarini uzoq muddatga jalb qilish borasidagi ishlarni yanada jonlantirish lozim.

<sup>27</sup> ula.uz сайти маълумотлари.

**11-jadval**

**"Asaka" bank tomonidan 2015 yil 1 yanvar holatiga qishloq xo'jaligi  
texnikalarini sotib olish uchun ajratilgan kreditlar va lizing xizmatlari  
to'g'risida<sup>28</sup>**

**M A ' L U M O T** (mln. so'm)


| № | Hududlar nomi               | 2014 yil 1<br>yanvar<br>holatiga<br>oldingi<br>yillarda<br>qishloq<br>xo'jaligi<br>texnikalari<br>xaridi uchun<br>ajratilgan<br>kreditlardan<br>qoldiq | 2014 yil boshidan<br>hisobot sanasigacha<br>ajratilgan kreditlar<br>hisobiga olingan<br>texnikalar |                 | Hisobot<br>sanasiga<br>jami qishloq<br>xo'jaligi<br>texnikalari<br>xaridi<br>uchun<br>ajratilgan<br>kreditlardan<br>qoldiq |
|---|-----------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|   |                             |                                                                                                                                                        | soni                                                                                               | summasi         |                                                                                                                            |
|   | 1                           | 2                                                                                                                                                      | 3                                                                                                  | 4               | 5                                                                                                                          |
|   | <b>Jami<br/>RESPUBLIKA:</b> | <b>41 405,5</b>                                                                                                                                        | <b>556</b>                                                                                         | <b>54 514,3</b> | <b>71 388,1</b>                                                                                                            |
|   | Bank krediti<br>hisobiga    | 35 845,0                                                                                                                                               | 143                                                                                                | 30 787,5        | 50 786,3                                                                                                                   |
|   | Lizing hisobiga             | 5 560,5                                                                                                                                                | 413                                                                                                | 23 726,8        | 20 601,8                                                                                                                   |

DAT Asaka bank tomonidan ko'rsatilgan lizing xizmatini tahlil qilar ekanmiz, bank tomonidan taqdim etilgan lizing hisobiga asosan texnika, jumladan qishloq xo'jaligi texnikalari sotib olingan.

2015 yil 1 yanvar holatiga lizing amaliyotlari hajmi 79,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 152 ta xo'jalik sub'ektlariga ko'rsatilgan lizing xizmatlari natijasida 625 tadan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

DAT Asaka bank tomonidan berilgan lizing miqdori 5 560,5 mln.so'mni tashkil etgan. Ularning soni 413 tani tashkil etgan. Mazkur bank lizing bozorida o'zining o'rniga ega bo'lgan banklardan hisoblanadi.

<sup>28</sup> DAT Asaka bank йиллик ҳисобот маълумотлари.



**8-rasm. 2014 yil davomida DAT Asaka bank tomonidan amalga oshirilgan lizing operatsiyalari miqdori<sup>29</sup> (foiz hisobida)**

2015 yilning 1 yanvar holatiga bankning lizing portfelida 1,9 foiz qurilish sohasi, moddiy-texnik ta'minotga 6,2 foiz, transport va aloqa sohasiga 11,3 foiz, sanoat tarmog'iga 13,9 foiz, qishloq xo'jaligiga 31,7 foiz, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga esa, 34,9 foiz lizing xizmatlari ko'rsatilgan.

2014 yil davomida ko'rsatilgan lizing xizmatlari 8076, 7 mln.so'mni tashkil etib, shundan, 3,8 sanoat tarmog'iga , 1,5 foiz qurilishga, 3,8 foiz qishloq xo'jaligi, 20 foiz transport va aloqa, 11,9 foiz moddiy-texnik ta'minot va maishiy xizmatlarga, 59 foizi boshqa tarmoqlarga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, xizmat ko'rsatilayotgan tashkilot va korxonalarga kafillik hamda kafolatlar berib borildi. 2014 yilda milliy valyutada jami 58207,7 mln.so'mlik, jumladan pudrat tashkilotlariga tender savdolarida qatnashish va qurilishni amalga oshirish uchun 12016,3 mln.so'mlik kafillik va kafolatlar taqdim etildi.

<sup>29</sup> DAT Asaka bank yillicik hisobot ma'lumotlari.

### **III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MOLIYAVIY LIZING MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

Bugungi kunda mamlakatimiz xizmat ko'rsatish bozorida ko'rsatilayotgan lizing xizmatlari iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini ro'yobga chiqarishda muhim moliyaviy-tashkiliy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu ma'noda, 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan "Lizing to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni sanoat, qurilish korxonalari, qishloq xo'jaligi kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini bosqichma-bosqich yanada ko'paytirish uchun zarur bo'lgan lizing xizmatlarini rivojlantirishda muhim huquqiy asos vazifasini o'tadi. Mazkur Qonunga muvofiq, lizing investitsiya faoliyati sifatida baholanadi va u bir qator soliq hamda bojxona imtiyozlari va afzalliklariga ega bo'lib, bular asosiy ishlab chiqarish vositalarini kam sarf-xarajat bilan yangilash yoki sotib olish imkonini beradi.

Chunonchi, 2014 yil yakunlariga binoan jahonda ko'rsatilgan lizing xizmatlarining umumiy hajmi 1 trln. \$ dan ortiqni tashkil qilgan bo'lib, bunda mazkur lizing xizmatlari hajmining 350 mlrd. \$ Xitoy, 278 mlrd. \$ AQSh, 243 mlrd. \$ Evropa, 42 mlrd. \$ Yaponiya hissasiga to'g'ri kelmoqda<sup>30</sup>. O'z navbatida 2014 yilda mamlakatimizda lizing portfeli 2,1 trillion so'm yoki 0,3 mlrd. \$ ni tashkil etib, bunda yangi lizing bitimlari summasi 826,2 milliard so'mdan iborat bo'lishiga qaramasdan, lizing operatsiyalari mamlakatimiz YaIMdagi ulushida o'zining past darajasini saqlab qolmoqda. Xususan, 2008 yilda lizingning YaIMdagi ulushi 1,0 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2009 yilda bu ko'rsatkich 0,8%, 2010 yilda 0,7%, 2011-2014 yillarda 0,6% pasayish tendentsiyasi kuzatilmoqda<sup>31</sup>. Shu bilan birga lizing portfelining mamlakat yalpi ichki

---

<sup>30</sup> [www.bankir.ru](http://www.bankir.ru) сайти маълумотлари

<sup>31</sup> [ula.uz](http://ula.uz) сайти маълумотлари

mahsulotidagi hamda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi ham pasayib bormoqda. Bundan tashqari, Respublikamizda so'ngi yillarda ajratilgan lizing mablag'lari tijorat banklari investitsion kreditlar hajmining bor yo'g'i 11% ni tashkil etishi 2014 yil yakuni bilan esa 9,2% tushib ketganligini ko'rishimiz mumkin bo'lib, o'z navbatida tijorat banklari tomonidan 2014 yilda amalga oshirilgan lizing bitimlari soni hamda hajmi 2013 yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Ajratilgan lizinglarni sohalar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, hamon qishloq xo'jaligi texnikalari va avtotransport vositalari yuqori foizlarni band qilmoqda, hududlar bo'yicha esa, viloyatlarda keng salohiyat bo'lishiga qaramasdan Toshkent shahri va Toshkent viloyati peshqadam bo'lmoqda<sup>5</sup>.

Yuqorida qayd etib o'tilgan ma'lumotlar mamlakatimizda lizing xizmatlari bozorini qayta ko'rib chiqish va tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Shu o'rinda lizingning o'ziga xos muhim belgilariga to'xtalib o'tsak. Lizing bo'yicha xorij lizing qonunchiligini tahlil qilayotganda uning quyidagi belgilariga e'tibor qaratiladi:

- lizingning oddiy ijara shartnomasidan farqi shundaki, lizing oluvchiga uning iltimosiga ko'ra lizing kompaniyasidan sotib olingan texnik ob'ekt ishlatishga beriladi;

- lizingga olingan jihozdan foydalanish uchun to'lovlarning umumiy miqdorlari emirilishi (ya'ni ammortizatsiyasi) qarzdin foydalangan (mulk uchun lizing oluvchi bu uskunani kredit hisobidan) foizlar hamda lizing beruvchining xizmat haqini hisobga olgan holda belgilanadi

O'z navbatida esa, ijaraning boshqa turlaridan shartli ravishda lizingning bir qator afzal jihatlari ham mavjud bo'lib, bunday afzalliklar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- boshlang'ich xususiy kapitalga bo'lgan ehtiyojning pasayishi bilan bog'liq. Odatda, lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchi tomonidan lizing oluvchiga jihozlar 100% ta'minlanishi oldindan talab qilinadi. Lizing to'lovlarini birdaniga to'lab borish talab qilinmaydi. Bu esa, lizing oluvchiga

moliyaviy jihatdan etishmovchilikning oldini olgan holda ishlab chiqarish fondlarini yangilash, qimmatbaho mulk sotib olish, ishlab chiqarish ko'lamini oshirish uchun aylanma kapitalni ko'paytirish imkonini beradi;

- korxonalar uchun texnikani qarz hisobidan sotib olishdan ko'ra, unga lizing shartnomasi asosida egalik qilish qulayroq. Chunki, lizingga berilayotgan mulkning o'zi bitim mohiyatiga ko'ra kafolat vazifasini o'taydi;

- lizingning qarz (ssuda)ga nisbatan afzallik tomoni uning tez moslasha olishidir. Chunki bu bitimda ishtirokchilar o'zlari uchun eng qulay to'lovlar rejasini ishlab chiqishlari mumkin;

- lizing bitimi kredit shartnomasiga nisbatan uzoqroq muddatga tuzilishi mumkin, shuning uchun doimiy yoki davriy lizing to'lovlari miqdori kam bo'lib, lizing oluvchining shu to'lovlar bo'yicha sarf-xarajatlari kamayadi, lizing shartnomasining aniq bajarilishiga ishonch oshadi;

- lizing oluvchi uchun mulkning ma'naviy va jismoniy emirilishi xavfi kamayadi. Chunki, mulk xususiy qilib sotib olinmasdan, vaqtincha foydalanish uchun olinadi;

- agar lizing shartnomasida boshqacha holat nazarda tutilgan bo'lsa, lizing mulki lizing beruvchining balansida bo'ladi. Bu esa lizing oluvchining aktivlarini ko'paytirmay, lizing mulki uchun to'lanadigan soliqdan ozod etiladi;

- lizing to'lovlari lizing oluvchi mahsulotining tan narxiga kiradi va shunga qarab soliq solinadigan daromadni kamaytiradi;

- lizing mulkini ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini sotishning qo'shimcha imkoniyatlariga ega bo'ladi;

- lizingdan davlat ham manfaatdor hisoblanadi. Chunki, lizingdan foydalanish natijasida ishlab chiqarish imkoniyati oshadi, byudjetga tushadigan soliqlar miqdori ko'payadi, yangi ish joylari yaratiladi va jamiyatda ishsizlikning oldini olishga imkon tug'iladi.

Bugungi kunda ko'plab rivojlanayotgan davlatlar bilan bir qatorda mamlakatimiz lizing kompaniyalari oldida turgan asosiy muammolardan biri, bu moliyaviy manbalarning etarli darajada shakllantirilmayotganligi natijasida

mavjud loyihalarni moliyalashtirishga mablag'larning etarli emasligidir. Xususan, aksariyat lizing kompaniyalar moliyaviy xizmatlar ko'rsatish maqsadida banklarning kredit mablag'lariga suyanib qolmoqdalar. Bu esa, o'z navbatida lizingni banklarning kredit mablag'iga nisbatan qimmatlashuviga olib keloqda.

Xulosa sifatida qayd etish joizki, respublikamizda lizing munosabatlarini yanada rivojlanishi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ayniqsa, qishloq joylarda lizing xizmatlarini ommalashishiga, xususan, mahalliy xom ashyoni qayta ishlovchi minitexnologiyalar soni va turlarini ko'paytirishda o'z samarasini bermoqda. Bu esa, ish o'rinlari yaratish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, shuningdek, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik sub'ektlarining investitsiyaviy faolligini oshirishning ta'sirchan va samarali omili bo'lib qolmoqda. Fikrimizcha, lizing kompaniyalari mablag'larini ko'paytirishning maqsadga muvofiq yo'li bu lizing kompaniyalarini aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirishni yanada rivojlantirishdir. Bu bir jihatdan lizing kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilsa, boshqa jihatdan lizing kompaniyalarida korporativ boshqaruvni joriy etish yo'li bilan ular moliyaviy mablag'lari sarflanishida o'zboshimchalik va ishga sovuqqonlik bilan qarash singari salbiy oqibatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Lizing kompaniyalarini aktsionerlashtirishning yana bir afzal jihati bevosita xalqaro hamkorlik bilan bog'liq bo'lib, bunda chet ellik bevosita mahsulot ishlab chiqaruvchilarga oddiy lizing kompaniyalari bilan hamkorlik qilgandan ko'ra aktsionerlik jamiyati shaklidagi lizing kompaniyasi bilan hamkorlik qilish, bunday lizing tashkilotlari moliyaviy mablag'lari kafolatlanganligi nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda qulay hisoblanadi.

Shuningdek, lizing kompaniyalari kapitallashuv darajasini borasida yana bir ahamiyatga molik jihat mavjud. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2006 yil 17 apreldagi PQ-325-sonli qarori bilan belgilangan, 5-

ilovaga muvofiq 2017 yilning 1 yanvariga qadar ro'yxat bo'yicha xizmat ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar shu jumladan, lizing bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan sub'ektlar uchun foyda solig'i hamda yagona soliq to'lovidan ozod qilingan edilar. O'z navbatida bugungi kunda mamlakatimizda lizing xizmatlari ko'rsatayotgan tashkilotlarni yanada moddiy jihatdan rag'batlantirish maqsadida qayd etilgan imtiyozlarning amal qilish muddatini 2017 yilning 1 yanvardan 2020 yil 1 yanvargacha uzaytirish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi takliflarning kelgusida qonun hujjatlarida inobatga olinishi mamlakatimizda lizing xizmatlarining yanada rivojlanishiga hamda mazkur sohaga xorijiy mablag'larni jalb qilishni ko'paytirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonini yanada jadallashtirishda tijorat banklari investitsion faoliyatini chuqurlashtirishni lizing orqali amalga oshirish samarali usullaridan biri bo'lib, mamlakatimizda lizing munosabatlarining samarali va muvaffaqiyatli rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi holatlarni eng muhimlari quyidagilardan iboratdir:

- lizing beruvchilar ham, lizing oluvchilar ham uning mohiyatini, afzalliklarini etarlicha tushunib olmaganlari;
- lizing bozoriga xizmat qiladigan infratuzilmalar, rivojlangan lizing kompaniyalari, konsalting firmalari, tijorat banklari lizingga ixtisoslashgan bo'limlari tarmog'larining kamligi;
- lizing xizmatlari haqida ma'lumot beruvchi muntazam yangilanib to'ldirib turiladigan va tushunarli axborot bilan ta'minlaydigan lizing axborot ta'minoti tizimi to'la tarzda rivojlanmaganligi;
- raqobat sharoitida tijorat banklari tomonidan lizingga beriladigan ob'ektlar katalogini lizing oluvchilarga etkazishning samarali yo'llarini ishlab chiqish.

Lizing xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga lizing kompaniyasidan tegishli asbob-uskuna olish uchun zarur mablag'ning uchdan biriga ega bo'la turib ish boshlash imkonini beradi. Ammo, lizing kompaniyasi asbob-uskunani ishlab

chiqaruvchidan to'la qiymati bo'yicha sotib olishi kerak, buning uchun unga qo'shimcha resurslari talab etiladi. Tijorat banklari nafaqat lizing kompaniyalariga kredit berishni xohlaydi balki banklari o'zi lizing bozorining faol ishtirokchilaridan biri bo'lishga harakat qilmoqda. Bu esa moliyaviy lizingning riski kreditlash amaliyotidagi riskdan bir muncha past hisoblanadi.

Lizing tarmog'ini rivojlanishi iqtisodiy rivojlanishga bir necha yo'nalishlar bo'yicha ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- Lizing orqali moliyalashtirish manbalariga ega bo'lmagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sub'ektlariga o'z ishlab chikarishlarini tashkil qilish va modernizatsiyalash imkoniyati yaratiladi;

- Lizing moliyalashtirishning qo'shimcha turi bo'lib, cheklangan resurslar sharoitida ham kapital quyilmalar hajmini oshiradi;

- Lizing moliyaviy xizmat ko'rsatish bozorida qo'shimcha raqobatni vujudga keltiradi va kreditga nisbatan afzalliklarini ko'rsatib beradi;

- Lizingning vujudga kelishi bilan raqobat sharoitida iqtisodiyotning real sektorlarini moliyalashtirish narxi pasayib, moliyaviy xizmat bozorida moliyaviy instrumentlar kengayadi. Rivojlangan mamlakatlarda lizing asosiy vositalarni xarid qilish uchun kredit o'rniga muqobil vosita bo'lib xizmat qilgan holda, korxonalarga bank oldidagi qarzlarni ko'paytirmaslik imkoniyatini yaratadi;

- Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobat sharoitida lizing uskunalarni sotilishini tezlashtirishga yordam beradi.

- O'tish iqtisodiyotiga ega hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda lizing xizmatlariga bo'lgan asosiy talab qishloq xo'jaligi texnikasi va mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish uskunalari bo'lib, ayniksa fermer xo'jaliklarining keng tus olishi va ularning asosiy vositalarini yangilanishi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash zarurligi bilan belgilanadi.

Banklarda lizing operatsiyalari hajmi tez sur'atlar bilan o'sishiga qaramasdan bank kredit portfelida lizing ulushi katta emas. Yuqorida ko'rsatilgan sababdan tashqari, bank xodimlari ko'p hollarda loyihalarni

moliyalashtirishda an'anaviy hisoblangan kreditlashni afzal ko'rishadi. Bu ko'pincha hollarda lizing operatsiyalarini amalga oshirishda malaka etarli emasligi, uzoq muddatli loyihalarni o'rganish va tahlil qilish qiyinligi bilan bog'liqdir.

Moliyaviy resurslarga ega bulgan har qanday tashkilot lizing kompaniyasi sifatida asbob-uskunani lizingga topshirishi mumkin. Biroq, chet el amaliyotida tasdiqlanishicha, lizingni yirik korporatsiyalar huzurida marketing xizmati tashkil etish o'rniga, banklar huzurida lizing kompaniyalar yoki sho''ba korxonalar tuzish yo'li bilan rivojlantirish maqsadga muvofiqroqdir. O'zbekistonda lizing kompaniyalari tuzganda chet el tajribasiga tayanish va ularni shakllantirishning samarali yo'llarini belgilash zarur bo'ladi. Tijorat banklari huzurida lizing kompaniyalari yoki sho''ba korxonalar va ularning mintaqa filiallarini barpo etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizning nazarimizda, lizing operatsiyalarini rivojlantirish lizing muomalalarini amalga oshirishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi, ularning ham lizing beruvchilar, ham lizing oluvchilar uchun boshqa moliyaviy vositalarga qaraganda raqobatbardoshligiga bog'liq. Jahondagi ko'plab rivojlangan mamlakatlar, jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya va Evropa mamlakatlaridagi lizing xizmatlari bozorini tahlil qilgan holda, ushbu mamlakatlarda lizing operatsiyalarini rivojlantirish shu davlat organlari tomonidan keng miqyosda qo'llab-quvvatlanganligini va bu chora-tadbirlar lizing operatsiyalarini rivojlantirishda rag'batlantiruvchi omil bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Masalan, AQSh soliq tizimida imtiyozlarning joriy etilishi tufayli lizingning jadal sur'atlarda rivojlanishiga asosiy sabab: tezlashtirilgan amortizatsiya va investitsiyaviy soliq imtiyozlari, yangi

investitsiyalar qiymatining 10 foizi soliq summasidan ushlab qolinishidir.

Frantsiya lizing kompaniyalariga soliq masalasida katta imtiyozlar berilgan: daromadning 85 foizi soliqdan ozod etilgan, shuningdek, tezlashtirilgan amortizatsiya va boshqa imtiyozlar joriy etilgan. Italiyada jamoat tashkilotlari uchun, shuningdek, ayrim iqtisodiy tarmoqlar uchun lizing bo' yicha soliq imtiyozlari joriy etilgan. Bu mamlakatda imtiyozlar to' g' risidagi qonunlar quyidagi tarmoqlar bo' yicha qabul qilingan:

- texnologik innovatsiyalar - 1987 y.;
- sanoatni qayta ta' mirlash - 1977 y.;
- savdo-sotiq - 1985 y.;
- qishloq xo' jaligi - 1986 y. va boshqalar.

Evropada lizing operatsiyalariga imtiyozli tarzda soliq solinadi. Investitsiyalar esa fondlarning tezlashtirilgan amortizatsiyasini qo' llanishi, o' z faoliyatini endi boshlagan yangi kompaniyalarni soliqdan ozod etishi hamda ularga muayyan faoliyat turlariga qarab, imtiyozli soliq tizimini joriy qilishi hisobiga katta samaralar beradi. Lizing oluvchining lizing to' lovlari soliqdan ozod etilgan bo' lib, ular soliq solinadigan daromaddan ushlab qolinadi. Hozir aksariyat MDH mamlakatlarida ham qator soliq imtiyozlari joriy etilgan. Masalan, Rossiyada lizing faoliyatining ishtirokchilari uchun bir qator soliq imtiyozlari nazarda tutilgan. Olib borilgan tahliliy ishlarga asoslangan holda, mamlakatimizda lizing sohasining rivojlanishiga va ularning

har tomonlama ravnaq topishiga to'sqinlik qilayotgan ba'zi holatlarni va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- lizing kompaniyalari faoliyati rivojlanishi va yuksalishiga ularning ustav jamg'armalalarini mustahkamlash ham yordam berishi mumkin. Ayni paytda lizing kompaniyalari tasarrufidagi aylanma mablag'lar miqdorining etishmasligi (Masalan, «O'zbeklizing interneshnl AO» qo'shma korxonasining ustav jamg'armasi 4 mln. AQSh dollarini, «O'zKeysagrolizing» O'zbekiston-Amerika qo'shma korxonasining ustav jamg'armasi 5 mln. AQSh dollarini, O'zbekiston banklari Uyushmasining «Baraka» universal lizing kompaniyasi uchun ajratilgan ustav jamg'arma esa 200 million sumni tashkil etgan) mamlatimizda lizing sektorining jadal sur'atlarda rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lmokda. Masalan, «Baraka» universal lizing kompaniyasi ustav kapitali mablag'larini 1997 yiliyoq o'zlashtirgan bo'lib, u hozirgi kunda lizing operatsiyalarini o'z moliyaviy faoliyatidan olingan daromadlari hisobiga o'tkazishga majbur bo'lmoqda. Ta'kidlash joizki, bu amaldagi oshirilishi mumkin bo'lgan loyihalar miqdorining qisqarishiga sabab bo'lmokda. Chunki yangi loyihalar uchun pul mablag'larining lizing to'lovlaridan tushayotgan moliyaviy resurslar hisobiga to'planishi muayyan vaqtni talab etadi. Lizing kompaniyalari uchun ajratilayotgan ustav kapitali miqdorining ozligi nafaqat iqtisodiyotimiz lizing sektori o'sishiga, balki mazkur kompaniyalarning son jihatdan ortishiga ham salbiy ta'sirini o'tkazmoqda;

- yangi texnika, texnika-jihozlarni moliyalashtirish uchun moliyaviy resurslarini izlab topish bozor, shu jumladan lizing infratuzilmasini rivojlantirishni nazarda tutadi. Lizingning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, korxonalarning moliyaviy resurslari cheklangan davrda lizing resurslarni tejash asosida mashina va texnikalar parkini qisqa muddatlarda yangilash imkonini beradi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy resurslar yo'q bo'lganida ularning lizingdan tashabbuskorlik va tadbirkorlik bilan foydalanishi ayniqsa o'rinli bo'ladi. Lizing xorijiy kapitalni, zamonaviy texnologiya va «nou-xau» ni jalb etish uchun zamin yaratadi.

-lizing kompaniyalarining ustav kapitalini mustahkamlash bilan bir qatorda mahalliy lizing kompaniyalari uchun imtiyozli sharlar asosida mamlakatimizdagi shuningdek banklarning kredit resurslarini jalb qilish hisobiga o'z aylanma mablag'larini oshirish shartlarini yaratish katta yordam beradi, Buning uchun amaldagi qonuniy hujjatlar - O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda «Lizing to'g'risida»gi qonunda moliyaviy mablag'larni chetdan jalb qilishga oid moddalar turlicha talqin qilinmas dan ular tahririy jihatdan muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozim bo'ladi;

- hozirgi paytda lizing munosabatlarining barcha ishtirokchilariga xizmat ko'rsatuvchi lizing sektori infratuzilmasini, ya'ni lizing kompaniyalari, konsalting firmalarining keng tarmoqparini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

- lizing xizmatlari bozorini etarli darajada ta'minlash maqsadida lizing kompaniyalarini chet el moliyaviy institutlari misolida bevosita respublika banklari va boshqa kredit muassasalari qoshida tuzish joiz.

Ishonchli lizing oluvchini to'g'ri tanlash, ular taklif etadigan loyihalarning hayotiyligi va samaradorligini aniqlash li-zingdan foydalanish amaliyotidagi asosiy muammolardan biridir. Shu bilan birga lizing oluvchining kredit qobiliyatini aniqlash va lizing bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'p jihatdan lizing operatsiyalarining samaradorligini oldindan belgilab beradi. Bu masalalarni to'g'ri hal qilish uchun xalqaro tajribaga asoslanib O'zbekistondagi iqtisodiy vaziyatni e'tiborga olib ish tutish lozim. Lizing munosabatlari lizing mol-mulkidan foydalanish imkoniyatini olish va kelajakda foyda ko'rish nuqtai nazaridan kredit munosabatlariga nisbatan samaraliroq bo'lishi kerak.

Moliyalashtirish usulini to'g'ri tanlash, risklarni hisob-kitob qilish, huquqiy va iqtisodiy qonunchilikni, moliyaviy lizing shakllanishi amaliyotini bilish lizingni rivojlantirishning asosiy omilidir.

Lizing kompaniyalari hozirgi davrda lizing operatsiyalarining asosiy qismini o'zlarining kapital bazasi hisobidan moliyalashtirmoqdalar.

## XULOSA

Mustaqil respublikamiz bozor munosabatlariga jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. Iqtisodiyotimizning bozor munosabatlarga o'tishi bir qator muammolarni, jumladan investitsiya jarayonini mablag' bilan ta'minlash, ya'ni moliyalashtirish manbalarini izlab topish masalasini oldinga tashlamoqda. Mana shunday manbalardan biri lizing hisoblanadi.

Lizing yangi ochilgan korxonalarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashga va ularni iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Lizing operatsiyalari bank biznesida keng tadbiiq etila boshladi, Ular tijorat banklari uchun bir qator muxim afzalik keltiradi.

- mazkur bank tuzilishi aniq ta'minotga ega bo'ladi;
- lizing operatsiyalari va u bilan bog'liq xizmatlar muntazam kengayadi;
- lizing yordamida mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkoni tug'iladi va bu bilan mijozlar doirasi kengayadi;
- o'z ishlab chiqarish fondini yangilashga muhtoj mijozlar bilan sifat jihatdan yangicha sheriklik munosabatlari o'rnatiladi.

Bank uchun lizing operatsiyasining yana bir afzalligi shundan iboratki, uning samaradorligi etarli darajada yuqori bo'ladi. Bundan tashqari tijorat banki lizing operatsiyalarining hisobi nisbatan soddaligi uchun qo'yiladi. Lizing biznesini rivojlantirib, uzoq muddatli kreditlash operatsiyasiga qaraganda ko'proq mablag' tejashi mumkin.

O'tgan davrda mamlakatimizda lizing bozori uch bosqichni bosib o'tdi. Birinchi bosqichda (1991-1999 y.) lizing qonunchiligi shakllandi, xalqaro tamoyillar izchil joriy etildi. Ikkinchi bosqich (1999-2005 y.) lizing huquqiy bazasining takomillashuvi, lizing bozorida ishtirokchilar sonining ko'payishi bilan izohlanadi. Uchinchi bosqich (2005-2011) esa lizingning ommalashishiga, xizmatlar bozorida raqobat muhitining barqarorlashuvi uchun shart-sharoit yaratdi.

Ko'rinib turibdiki, o'z vaqtida qabul qilingan qonun, shuningdek, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar lizing bozoriga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayni chog'da kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida yaratilayotgan engilliklar qatorida, lizing oluvchilar lizing to'lovidagi qo'shimcha qiymat solig'idan ozod etilganligi, lizing ob'ektidan mulk solig'i olinmasligi, lizing asosida xarid qilingan texnologik uskunalar bojxona to'lovlari va qo'shimcha qiymat solig'iga tortilmasligi belgilab qo'yilgani ham ayni muddao bo'ldi.

Eng asosiysi, hozir O'zbekistonning har bir fuqarosi lizing xizmatidan foydalanishi mumkin. Unga zarur bo'lgan texnologiyalarni taklif etish, sotib olib etkazib berish, ma'lum muddatga kelishilgan haq evaziga ijaraga berish — bularning bari qisqa vaqt ichida hal etilishi nihoyatda jozibalidir.

Lizing kompaniyalarining faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, lizingga berilayotgan mol-mulkning asosiy qismini texnologik uskunalar, qishloq xo'jaligi texnikasi, yuk va yo'lovchi tashish avtotransporti hamda ko'chmas mulk tashkil etmoqda.

Tijorat banklarining beradigan lizing kreditlari hajmiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Tijorat banklarining joriy likvidlilik darajasi. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining joriy likvidlilik darajasi kamida 30 foizni tashkil etishi lozim. Ushbu normativ daraja Xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan me'yoriy darajaga mos keladi. Masalan, Evrozona mamlakatlari uchun joriy likvidlilik koeffitsientining minimal darajasi 25 – 30% qilib belgilangan.

2. Tijorat banklarining depozitlari ularning kreditlash faoliyatini ta'minlovchi asosiy resurs manbai hisoblanadi. Shu sababli, tijorat banklari depozit bazasining etarliligi ularning lizing kreditlariga bo'lgan talabni qondirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

3. Tijorat banklarining kapitallashish darajasi. Tijorat banklarining kapitallashish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning lizing kreditlari berish

imkoniyati shunchalik baland bo'ladi. Chunki, kapital tijorat banklari faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbai hisoblanadi.

Lizing munosabatlarini takomillashtirish borasida quyidagi takliflarni keltirib o'tish mumkin:

- Lizing bozorida raqobatni kengaytirish lozim. Chunki hozir lizing bozori hajmining 30 foizga yaqini O'zqishloqxo'jalikmashlizing kompaniyasiga, 30 dan ortiq foizi Asaka bank hissasiga to'g'ri kelmoqda.

- Lizing bozorida ishtirokchilarning tarkibi va sonini oshirish lozim. Chunki oxirgi 3 yilda lizing bozori ishtirokchilari faqatgina lizing kompaniyalari va tijorat banklari bo'lib qolmoqda. Nobank kredit tashkilotlari va boshqa kompaniyalarning ishtirok etishini ta'minlash kerak.

- Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish kerak. Chunki ushbu bozorda qo'shimcha resurs, kapital jalb qilish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa kompaniyalarning lizing operatsiyalari hajmini kengaytirishga xizmat qiladi.

- Lizing operatsiyalarini o'tkazish, yangi turlarini ishlab chiqishda xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yim lozim. Qolaversa, chet el kapitali ishtirokidagi lizing kompaniyalarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu birinchidan raqobatni kengaytirsa, ikkinchidan xalqaro bozorga chiqish imkonini beradi.

- Lizing bozorida lizing operatsiyalari taqsimoti diversifikatsiyasini oshirish va asosan ishlab chiqarish sohasiga ko'proq e'tibor berish lozim. Chunki ishlab chiqarish bir qator qulayliklarga ega. O'tgan yili tijorat banklari tomonidan berilgan lizing operatsiyalari tarkibida 36 foizdan ortig'i bitta operatsiya turiga, ya'ni ko'chmas mulkka to'g'ri kelgan.

- Chet el tajribasi lizingdan foydalanishda ayrim mintaqalarga va bozor sektorlariga imtiyozlar berish zarurligidan dalolat beradi. Iqtisodiyotning texnika va texnologiya sohasida orqada qolgan sektorlariga, masalan, qishloq xo'jaligiga, uning mahsulotini qayta ishlashga, xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga, maishiy va sanoat

elektronikasi, tibbiyot texnikasiga, atrof-muhitni muhofaza qilish uskunalari ishlab chiqarishga va boshqa sohalarga lizingdan foydalanish bo'yicha barcha imtiyozlarni berish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Iqtisodiyoti sust rivojlangan mintaqalarga soliq sohasida imkon boricha imtiyozlar berilishi ham foydadan holi emas.

- Investitsiya faoliyatini rag'batlantirishning hozirgi bosqichida asosiy kapitalni lizing asosida sotib olish va yangilash yo'li bilan xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish zarur. Shu maqsadda lizingni rivojlantirish uchun alohida lizing tarmog'ini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratish lozim. Lizing kompaniyalari va O'zbekistonning barcha mintaqalarida ularning filiallarini tuzish, ularni soliq va yig'implardan ozod qilish, ularning mustahkamlanishiga imkon berish, shu yo'l bilan lizing operatsiyalarini kengaytirish kerak. Qishloq joylarda bu ishning, yo'lga qo'yilishi qishloq mahsulotlarini qayta ishlashga, yangi ish joylarini hosil qilishga yordam beradi.

- Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda lizingni joriy etish maqsadida moliyalashtirishning muqobil usullarini taqqoslash lozim. Bunda moliyalashtirish muqobil usullarining natijalarini chiqimlarning haqiqiy qiymati ko'rsatkichi, kutilgan sof foyda bo'yicha qiyoslash talab etiladi. Bundan tashqari xalqaro lizingni rivojlantirishda lizing ob'ekti real qiymatini baholash vazifasi ham kun tartibida turadi.

- Respublikada amal qilayotgan amortizatsiyani hisoblash tartibi eskirishni bir maromda hisoblash usulidan foydalanishni

ko'zda tutadi, bu esa aslida inflyatsiya sharoitida vaqt jihatidan (asbob- uskunalarining qiymatigina emas, ayni vaqtda hisoblangan va shakllantirilgan amortizatsiya fondining ham qadrsizlanishi natijasida) amortizatsiya qiymatini yo'qotishga olib boradi. O'zbekistonning amaldagi qonun hujjatlariga binoan jadal amortizatsiyani qo'llashga ruxsat beriladi, biroq me'yoridan yuqori bo'lgan amortizatsiya ajratmalari soliqla tortiladigan bazaga kiritiladi va undan soliq undiriladi. Shu munosabat bilan, bizningcha, investitsiyalarni rag'batlantiradigan va soliqla tortiladigan bazani qisqartiradigan jadal amortizatsiyani hisoblashning zarur usullaridan erkin foydalanishni amaliyotga joriy etish zarur, bu esa jamg'ariladigan amortizatsiya summasini inflyatsiya ta'siridan saqlash imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 587-599 bandlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Toshkent, 2007.
3. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonuni, T.: "O'zbekiston", 1999 yil 14 aprel.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ijara to'g'risida"gi Qonuni, T.: "O'zbekiston", 1991 yil 19 noyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, T.: "O'zbekiston", 2002 yil 13 dekabr.
6. "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.-T.: "O'zbekiston", 1995.
7. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.-T.: "O'zbekiston", 1996.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Lizing faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 2002 yil, 8-son, 131-132-betlar.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2005 yil 15 aprel
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007 yil 7 noyabr, PQ-726-son.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ-2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 dekabrdagi 557-son «Bir qarzidor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzidorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to'g'risida»gi Nizomi // O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami.-to'ldirilgan 2-chi nashri. – Toshkent: «O'zbekiston», 2003. – B. 187-192.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2006 yil 21 oktyabrdagi "Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizom, 25/6 sonli Qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1999 yil 11 fevraldagi 632-son «Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ssudalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxirani shakllantirish va undan foydalanish» Tartibi.

16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 2 martdagi 905-son «Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomi.

17. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. Toshkent.: O'zbekiston, 2013 y.

18. Karimov I.A. «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» Toshkent.: O'zbekiston, 2012 y.

19. Karimov I.A. «2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi» Toshkent.: O'zbekiston, 2014 y.

20. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. - Toshkent: O'zbekiston, 2015.

21. Karimov I.A. «Bank tizimi, pul muomilasi, kredit investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida». T.: O'zbekiston, 2005 yil.

22. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma, T.: «Iqtisodiyot», 2009.

23. Abdullaeva Sh.Z., Omonov A.A. «Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish», -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006 yil 120 bet.

24. G'.Nabiev, Marpatov M.D. «Lizing g'oyasi, tarixi, huquqiy asoslari va amaliyoti». T.: «O'AJBNT» Markazi-2004 yil, 80-bet.

25. Qarabova G.G. i dr. Bankovskoe delo.-M.: Ekonomist, 2004 g.

26. Lavrushin O.I. Dengi, kredit, banki. «Knorus» 2007 g 320 s

27. Omonov A.A. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish. T.: «Fan va texnologiya». Monografiya, 2008 yil, 248 b.

28. Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. O'quv qo'llanma TDIU, «MAX-PRINT» MChJ, 2008 y, 432 b.

29. G'ozibekov D.G'. «Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari». T.: «Moliya», 2003 yil.

30. G'ozibekov D.G'. «Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti» T.: «Fan texnologiya» 2004 y.

31. Marpatov M.D. «Lizing g'oyasi, tarixi, huquqiy asoslari va amaliyoti». Bozor, pul va kredit, 3-son, 2008 yil. 32-33 betlar

32. Lizing bozori: natijalar va istiqbol. «Bozor, pul va kredit» jurnali 2008 y №5. 16-bet

33. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

34. Tijorat banklari va lizing kompaniyalari yillik hisobot ma'lumotlari.

**35. Internet saytlari:**

[www.ula.uz](http://www.ula.uz)

[www.bankir.ru](http://www.bankir.ru)

[www.state.uz](http://www.state.uz)

[www.ser.uz](http://www.ser.uz).

[www.nbu.com](http://www.nbu.com)  
[www.tfi.uz](http://www.tfi.uz)  
[www.bma.uz](http://www.bma.uz)  
[www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)  
[www.finance.uz](http://www.finance.uz)  
[www.review.uz](http://www.review.uz)  
[www.gov.uz](http://www.gov.uz)